

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**«KREDIT-IQTISOD» FAKULTETI**

**«BANK HISOBI VA AUDIT» KAFEDRASI**

**YUSUBBOEVA DINORA QUDRAT QIZI**

**“RESPUBLIKA MOLIYA BOZORIDA UZOQ MUDDATLI  
RESURSLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI”**

5340700 – «Bank ishi» ta'lim yunalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish  
uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**

**Fakultet dekani**

\_\_\_\_\_ i.f.n. R.Saidov

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018 y.

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**

**«Bank hisobi va audit» kafedra mudiri**

\_\_\_\_\_ i.f.n. Z.Umarov

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018 y.

**Bitiruvchi:** 5340700 – «Bank ishi» ta'lim  
yunalishi 4-kurs talabasi  
Yusubboeva Dinora Quدرات qizi

\_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar:

\_\_\_\_\_ Umarov Z.A.

**Toshkent – 2018**

Men, Yusubboeva Dinora Qudrat qizi, KBI-52 akadem guruhi talabasi BMIning mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga kafolat beraman. Himoyadan so'ng ko'chirmachilik holati aniqlanganda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va himoya natijasi bo'yicha "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman va bu haqda ogohlantirildim.

**Sana: "\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2018 y. \_\_\_\_\_ Yusubboeva D.Q.**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>1-BOB. MOLIYA BOZORINING MOHIYATI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI .....</b>	<b>7</b>
1.1. Moliya bozorining mohiyati va turlari .....	7
1.2. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi o'rni .....	16
1-bob bo'yicha xulosa .....	23
<b>2-BOB. RESPUBLIKA MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARINING UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI SHAKLLANTIRISH HOLATI TAHLILI.....</b>	<b>25</b>
2.1. Qimmatli qog'ozlar bozori va unda tijorat banklarining uzoq muddatli resurslarni jalb qilish .....	25
2.2. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan uzoq muddatli resurslarni jalb qilish operatsiyalari .....	31
2.3. Pul bozorida banklar tomonidan uzoq muddatli resurslarni shakllantirish .....	39
2-bob bo'yicha xulosa .....	51
<b>3-BOB. MOLIYA BOZORIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH.....</b>	<b>53</b>
3.1. Tijorat banklarida korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali uzoq muddatli resurslarni jalb qilish .....	53
3.2. Moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish orqali banklarning resurs bazasini mustahkamlash yo'nalishlari .....	58
3-bob bo'yicha xulosa .....	64
<b>XULOSA .....</b>	<b>66</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>69</b>



## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlardan biri<sup>1</sup> bo'lib, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish hisoblanadi. Bunda bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Mustaqil mamlakatimiz moliya bozorida, shu jumladan bank-moliya tizimida o'tkazilayotgan islohotlar natijasida zamonaviy jahon andozalariga va talablariga mos keladigan moliya-bank tizimi hamda bozor infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda, moliya-bank sohasini yanada erkinlashtirishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslari va ulardan kelib chiquvchi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda bank-moliya tizimi barqarorligini ta'minlashga katta e'tibor berilayotganligi tufayli mamlakatimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, uning jahon moliya bozoridagi nufuzi ortib borishi, shuningdek mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, qator nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Takidlash joizki, global jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida ham mamlakatimiz bank-moliya tizimi barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. Bugungi kunda bank biznesi Respublikamiz iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, sohadagi aktivlar, kapital darajasi, kredit qo'yilmalari va

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni

investitsion amaliyotlar hajmi kabi asosiy ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari buni yaqqol tasdiqlamoqda.

Moliya bozori – bu jamiyatdagi moliya xizmatlari bozoridir, ya'ni bu moliya mablag'larni vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlardir. Moliya bozori - bu moliyaviy aktivlarning oldi-sotdi qilishi borasidagi ularni sotuvchilar bilan sotib oluvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlaridir. Ushbu moliya operatsiyalarni ko'pchiligi bank muassasalarida ro'y beradi. O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy mahsullaridan biri tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan milliy moliya bozori hisoblanadi.

Milliy moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatini dolzarbligi quyidagi muammolarni samarali echimiga erishish zaruratidan kelib chiqadi: investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirish, barqaror industrial va iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Bu muammolarni samarali echimi moliya bozorining raqobatbardoshligi va havfsizligi, barqarorligi va likvidligi, investorlar uchun jalbdorligi va risksizligi darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq.

Ushbu holat moliya bozorida uzoq muddatli resurslarning shakllanishi va undan banklar resurs sifatida foydalanish darajasini o'rganish, ushbu sohada erishilgan yutuqlarni va mavjud muammolarni tadqiq qilish, uzoq muddatli resurslarni shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligi bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lib moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni shakllantirishning amaldagi holatini o'rganish va undan banklar foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari** esa quyidagilar hisoblanadi:

- moliya bozorining mohiyatini ochib berish;
- moliya bozorining iqtisodiyotdagi o'rnini tadqiq qilish;
- qimmatli qog'ozlar bozori va unda tijorat banklarining uzoq muddatli resurslarni jalb qilish jarayonini o'rganish;

- tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan uzoq muddatli resurslarni jalb qilish operatsiyalarini o'rganish;

- pul bozorida banklar tomonidan uzoq muddatli resurslarni shakllantirishni o'rganish;

- moliya bozori orqali uzoq muddatli resurslarni shakllantirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** – moliya bozori hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** – moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot jarayonida olingan natijalar va berilgan tavsiyalar moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni shakllantirishda mavjud muammolarni hal etish bo'yicha chora–tadbirlar ishlab chiqishda, “Bank ishi”, “Moliya bozori” fanlarini o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**BMIning tarkibiy tuzlishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ish kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 71 bet, 5 ta jadval va 10 ta rasmdan iborat.

# **1-BOB. MOLIYA BOZORINING MOHIYATI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI**

## **1.1. Moliya bozorining mohiyati va turlari**

Ma'lumki, moliya-kredit sohasi bozor iqtisodiyotidagi transaksiyalarga xizmat ko'rsatish, moliyaviy resurslar (jamg'armalar)ni jamlash, taqsimlash, boshqarish va qayta taqsimlash hamda ularni nazorat qilish funksiyalarini bajaruvchi murakkab tizimdir. Bunda moliya bozori moliya-kredit sohasi (tizimi)ning alohida bo'g'ini bo'lib, u orqali moliyaviy resurslar moliyaviy vositalar (instrumentlar) yordamida talab va taklif asosida qayta taqsimlanadi. Shuning uchun moliya bozorini moliyaviy instrumentlar bo'yicha talab va taklif funksiyasi deb atash mumkin. Unda iqtisodiyot sub'yektlari o'z maqsadlari va funksiyalari bilan moliyaviy instrumentlar yordamida bozor munosabatlariga kiradilar.

*Moliyaviy instrument* - bu, umuman olganda, real mulk, mulkiy huquq yoki maxsus huquq shaklidagi bazisga ekvivalent ("egiz-analog", o'hshash) qiymatga va narxga, parametr va xossalarga ega bo'lgan, maxsus iqtisodiy-huquqiy-informatsion mexanizm bilan ta'minlangan, faqat o'ziga xos moliya bozoridagi munosabatlarni belgilovchi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlovchi, riskli va muayyan hollarda ma'lum ko'rinish(dividend, foiz stavka, diskont, kurs tafovut)larda daromad keltiruvchi vosita sifatida, har hil turlarda, shakl va mazmunlarda namoyon bo'ladigan riskli mulk (mulkiy huquq) ham kapital, aktiv va fond boyiligi ham tolov vositasi ham moliya bozori tovaridir. Moliyaviy instrumentning (kreditlar, lizing, depozitlar, valyuta, qimmatli qog'ozlar, sug'urta va pensiya polislari, derivativlar va boshqa turdagi moliyaviy mahsulotlar) moliyaviy tovarlilik xossasi uni boshqa turdagi tovarlardan (ko'chmas va intellektual mulk, hom ashyo va shu kabilar) farqli kimningdir (iqtisodiyot sub'yektlari) tomonidan chiqarilishi, o'ziga xos moliya bozorida muomalada bo'lishi, unda maxsus funksiyalarni va rolni bajarishi bilan belgilanadi.



Har qanday moliyaviy instrument o‘z mazmuni, xossa va xususiyatlariga hamda moliya bozoridagi segmentiga ega. Masalan, pul va uni tovar toifasiga aylantiruvchi instrumentlar (kredit, chek, kartochkalar va h.k.) muomalasi uchun ularga xos bo‘lgan moliya bozori segmentlari - mos ravishda pul bozori va kreditlar bozori va h.k. zarur, valyuta uchun valyuta bozori, sug‘urta risklarini boshqarish xizmatlari uchun sug‘urta polislari bozori, qimmatli qog‘ozlar uchun esa faqat fond bozori kerak.

Demak, moliyaviy instrumentlar o‘z bozorida moliyaviy resurslar jarg‘armachilardan iste‘molchilarga tomon va aksincha yo‘nalishda harakat qilishini ta‘minlovchi vosita.

Iqtisodiy globallashuv jarayonida birlashgan moliya bozorini shakllantirish jarayoni rivojlanmoqda. Moliya bozorining turli jabhalaridagi global shaklga integratsiyalashuvi asosan moliyaviy yangiliklarni va yangi moliyaviy vositalarni rivojlantirish orqali belgilanadi. Kirishning asosiy vazifalaridan biri xavflarni nazorat qilish edi. Ammo aslida birlashgan global bozor moliyaviy xatarlarning asta-sekin birlashuviga olib keladi, bu moliya bozorining tarkibida mavjud bo‘lgan sinergiya natijasida umumiy tavakkalning miqdori va umrbodligini oshiradi<sup>2</sup>.

Insonlarning ilk bozor munosabatlari tarixiga nazar tashlansa, bozor odamlar o‘rtasidagi boyliklarni natural tovar sifatida maqsadli va o‘zaro manfaatli tarzda oddiy almashinuvi jarayonidan boshlangan. Hozirga kelib bozor alohida nazariyasiga va faoliyat mexanizmiga ega, yuqori darajada tartiblashgan murakkab infratuzilma shaklida namoyon bo‘luvchi dinamik muhitga aylangan bo‘lib, zamonaviy iqtisodiyot rivojini obyektiv belgilaydi. Bozorning dinamik muhit ekanligi unda tovarlar hajmi va ularning bahosi vaqt birligi ichida talab va taklif asosida uzluksiz jarayon sifatida o‘zgarib borib shakllanishi bilan belgilanadi. Bunda bozorning eng yuqori darajada rivojlangan turi moliya bozori hisoblanadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi tarixiga nazar tashlansa, moliya bozorini insoniyat jamiyatida pulning paydo bolishi va u bilan bog‘liq bozor munosabatlari amalga

---

<sup>2</sup> Rustam Akhmetova, Guzel Rysaeva, The Problems of Financial Cycle Modeling in the Globalization of Financial Markets // Procedia Economics and Finance 27 ( 2015 ) 522 – 528  
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S221256711501014X>

oshirila boshlashidan shakllanishini ko'rish mumkin. Asrlar davomida moliya bozori, uning mazmuni va unga oid tushunchalar shakllanib va uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Bunga sabab, inson sivilizatsiyasining moliya sohasidagi tajribasini boyishi, unda shaxslarning (yuridik va jismoniy) moliyaviy munosabatlari va qiziqishlari kengayib, maqsadlari va faoliyat turlari ortib, manfaatlari tobora o'sib, ularning haq-huquqlari borgan sari mustahkamlanib va ta'minlanib borishidir.

Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlar va institutlar (qatnashchilar) majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi murakkab tizim ekanligi aniq bo'lmoqda. Bunda moliya bozorlari nafaqat milliy iqtisodiyot rivojini, balki global iqtisodiyot rivojini ham belgilamoqda. Bunga tasdiq sifatida iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va moliya bozorining o'zaro bog'liqligini keltirish mumkin.

Moliya bozorini, quyidagicha ta'riflash mumkin: *moliya bozori* - bu moliya-kredit sohasining tarkibiy qismi bo'lib, real bazisiga ekvivalent moliyaviy instrumentlar (kreditlar, lizing, depozitlar, valyuta, qimmatli qog'ozlar, sug'urta va pensiya polislari, derivativlar va boshqa turdagi moliyaviy mahsulotlar) bilan bog'liq tashkillashgan iqtisodiy-huquqiy-informatsion mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni iqtisodiyot sub'yektlari tomonidan maqsadli amalga oshirilishi uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'luvchi tizim<sup>3</sup>.

Boshqacha qilib umumlashtirib aytilsa, moliya bozori - moliyaviy instrumentlar bo'yiicha talab va taklif funksiyasi hamda ular vositasida jamg'armalarni investitsiyalarga transformatsiyalanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar va qulay (S-I)-muhitni va umuman [(S-I)+N]- muhitni<sup>4</sup> ta'minlab beruvchi, faoliyati maxsus iqtisodiy-huquqiy- informatsion mexanizm bilan ta'minlangan va tartibga solinuvchi murakkab tizim - moliya-kredit tizimining

<sup>3</sup> Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 440 b.

<sup>4</sup> Moliya bozori yordamida jamg'armalar shakllanadi (akkumulyatsiyalanadi) va ular samarali investitsiyalarga transformatsiyalanib yana jamg'armalarga aylanadi. Aynan investitsiya siyosati bilan boshqariluvchi shu davriy - transformatsion jarayonni jamg'armaviy-investitsion muhit, ya'ni (S-I)-muhit, deb atalsa bo'ladi. Ushbu siyosat innovatsion siyosat bilan bog'langanda mos ravishda (S-I)-muhit va innovatsion muhit uyg'unligi (integratsiyasi), ya'ni [(S-I)+N]-muhit (bunda N - movatsiya, novatsiya mazmunini bildiradi), vujudga keladi.

alohida bo'g'ini (tarkibiy qismi). Ushbu tizim mexanizmi iqtisodiyotning barcha sub'yektlari tomonidan ularni har birining alohida manfaatli maqsadlari doirasida harakatga keltiriladi.

Moliya-kredit sohasi tarkibiga davlat va munisipal moliya, korporativ moliya (moliyaviy va nomoliyaviy institutlar moliyasi) va moliya bozorlari kiradi. Uning iqtisodiy tuzilmasiga quyidagi bozorlar kiradi:

1) *pul bozori:*

- qisqa muddatli kreditlar bozori;
- qisqa muddatli depozitlar bozori;
- qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bozori;
- valyutalar bozori;
- repo bozori;
- qisqa muddatli derivativlar bozori;

2) *kapitallar bozori:*

- o'rta va uzoq muddatli kreditlar bozori;
- o'rta va uzoq muddatli depozitlar bozori;
- o'rta va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bozori;
- investitsiya, hayriya va boshqa turdagi fondlar bozori;
- sug'urta bozori;
- pensiya bozori;
- o'rta va uzoq muddatli derivativlar bozori;
- tuzilmalashtirilgan moliyaviy mahsulotlar va shu kabilar bozori.

Umuman olganda, moliya bozori tushunchasi tovarlarning boshqa turlari (masalan, neft, oltin va boshqa turdagi hom-ashyolar, xizmatlar, ko'chmas mulk va boshqalar) bozorlari tushunchasi o'rtasida ma'lum o'hshashlikni sezish mumkin. Lekin har qanday bozorni u yoki bu belgi asosida tasniflanishining mazmuni uning tovar xususiyatlari bilan bog'liq holda amaliy ahamiyati bilan belgilanishini hisobga olsak hamda, agar ko'rilayotgan bozor turlaridagi tovarlarni xususiyati, kelib chiqishi va ularning bozor muomalasini bir-biri bilan taqqoslaydigan bo'lsak, albatta sezilarli farq namoyon bo'ladi. Masalan, ishlab chiqariladigan tovarlar

muomalasi uchun ularga xos bo'lgan bozor zarur, qimmatli qog'ozlar uchun esa faqat fond bozori, pul (valyuta) va kreditlar uchun - mos ravishda pul bozori va kreditlar bozori bo'lishi kerak va h.k. Bunda real tovar, moliya instrumentlaridan farqli, bir yoki bir necha marotaba oldi-sotti bo'ladi, qimmatli qog'ozlar esa cheklanmagan marta oldi-sotti bo'lishi mumkin. Umuman olganda tovar kimningdir tomonidan ishlab chiqariladi, moliyaviy instrument (jumladan qimmatli qog'oz) esa muomalaga chiqariladi.

Bunda aytish zarurki, har qanday tovar bozori (jumladan moliya bozori va uning tarkibidagi qimmatli qog'ozlar bozori) unga mos keluvchi xizmatlar bozoriga ham ega bo'lib, bu bozorlar o'zaro ekvivalent va bog'liqlikda tartibli faoliyat yuritadigan yaxlit ixtisoslashgan infratuzilmani tashkil etadi. Ularing bunday tartibli faoliyati regulyator vositasida amalga oshiriladi. Zero bu bozorlarning biri o'zlarining tovari bo'yicha obyektiv narxlarni shakllantirib belgilayadi va ikkinchisi (xizmatlar bozori) adolatli bozor qiymatlarini ekspert baholaydi.

Moliya bozori har qanday mamlakatning umumiy bozorini tarkibiy, ammo, asosiy va alohida qismidir. Lekin, moliya bozori real tovarlar bozori bilan bog'liqdir. Bunda moliya bozori real iqtisodiyot va tovar bozorining ustqurmasi sifatida namoyon bo'lishi bilan birga tovar bozori va iqtisodiyotni moliyaviy ta'minlaydi va muvofiqlashtiradi, umuman iqtisodiyotning obyektiv holatini ifodalaydi va rivojlanishini belgilaydi.

Biznes sub'yektlarining asosiy maqsadlaridan biri foyda olish bo'lganligi uchun undagi har qanday faoliyat kapitalni orttirish sohasi bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan har qanday bozor - bir vaqtning o'zida kapitallarga qo'yilmalar uchun mo'ljallangan bozor hamdir.

Pul mablag'lari tovarning har qanday turiga (jumladan qimmatli qog'ozlarga) qo'yilishi (yo'naltirilishi) mumkin. Buning barcha holatlarida yo'naltirilgan pul mablag'lari vaqt mobaynida o'z orttirmasiga (yoki zarariga) ega bo'lishi, ya'ni foyda yoki zarar keltirishi mumkin. Ammo, bu holatlarning barchasida boshlang'ich pul mablag'ini jamg'arish (topish) jarayoni mavjud emas, har qanday

kapitalga pul mablag'ini qo'yish uchun boshlang'ich jamg'armaga ega bo'lish yoki topish imkoniyatini bermaydi.

Boshqa sohalardan farqli moliya bozori esa ushbu imkoniyatni beruvchi, uning uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratuvchi muhit, alohida iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan, institution (qatnashchilari) va ularning moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq munosabatlari majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi tizimdir. Aynan shu va yuqorida aytilganlar bilan moliya bozori boshqa turdagi bozorlardan keskin farq qiladi.

Moliya bozori o'z ichiga quyidagi segmentlarni oladi:

- kredit (bank va boshqa kredit tashkilotlari kapitallari, lizing) va depozitlar bozori;
- qimmatli qog'ozlar bozori;
- valyuta bozori;
- oltin va valyutada ifodalangan (unga tenglashtirilgan) ashyolar (qimmatbaho metall va toshlar, kamyob elementlar, san'at asarlari va h.k.) bozori;
- sug'urta va pensiya fondlari bozori, lotoreya o'yinlari instrumentlari bozori.

Moliya bozori iqtisodiyotda quyidagilar mavjud bo'lgandagina samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin:

- effektiv (samarali) mulkchilik tizimi;
- investitsiya uchun mo'ljallangan yetarli jamg'armalar (moliyaviy, resurslar, mablag'lar) va iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan moliyaviy instrumentlar.
- talab va taklifni obyektiv mutanosibligi;
- moliya bozori infratuzilmasini samarali faoliyati;
- bozor qonunlari, tamoyillari va qonunchiligining hukm surishi;
- moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlilik va xavfsizlik, risklarni bashoratliligi.

Moliya bozorida moliyaviy resurslar jarg'armachilardan iste'molchilarga tomon va aksincha yo'nalishda harakat qiladi. Bunda jamg'armalar investitsiyalarga transformasiyalanadi (aylanadi).

Moliya bozorida resurslar harakati quyidagi omillarga bog'liq:

- bozorning daromadlilik darajasi;
- bozorni soliqqa tortish shart-sharoitlari;
- kapitalni yo'qotish yoki nazarda tutilgan foydani ololmaslik riski;
- bozorni samarali institutsional va funktsional tashkillashgani;
- bozorni samarali muvofiqlashtirilganligi va nazorat qilinishi;
- moliyaviy instrumentlarning real bazis bilan ta'minlanganligi va shu asosda iqtisodiyot va moliya bozorini ekvivalentligi;
- jamiyatning mentaliteti va tanlab olgan rivojlanish modeli;
- makro va mikroiqtisodiy barqarorlik;
- tashqi omillar va hodisalarning bozorga ta'siri va boshqalar.

Ushbu omillar (tashqi va ichki fundamental omillar) moliya bozoridagi voqeliklar (jarayonlar, hodisalar) rivojini shakllantiradi.

Samarali (effektiv) moliya bozori bo'sh kapitalning adekvat hajmini va mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun zarurdir. Agarda, puldan boshqa moliyaviy resurslar bo'lmaganda edi, bozor sub'yektlari o'zlarining jamg'armalari hajmidan oshmagan miqdordagina investitsiya qilishlari mumkin bo'lardi, bu esa ularning investision faolligi cheklanganligidan dalolat beradi va kapitalni nooptimal (samarasiz) ishlatilishiga olib kelardi. Natijada bozor sub'yektlari uchun investitsiya qilish variantlari kam bo'lganligi munosabati bilan ularda mablag'larini akkumulyatsiya qilishdan boshqa imkoniyat qolmasdi. Bu esa moliyaviy instrumentlarni bozor muomalasiga chiqarishning afzalligini va moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Muhimi shundaki, erkin iqtisodiyotning qonunlari ta'siri ostida moliyaviy kapitalning (instrumentlarning) samarali, operativ va likvid muomalasi uchun obyektiv moliya bozori muhiti shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhit evaziga iqtisodiyot samarali monetizatsiyalashadi, real mulk va tovarlar pul yordami va o'lchamida erkin

moliyaviy instrumentlarga transformatsiyalanib, moliya bozorida ularning obyektiv narxi shakllanadi, natijada iqtisodiyot qonunlariga asoslangan moliyaviy resurslar bilan bog'liq investision faollik rivojlanadi va iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Aytish joizki, pul ham kapital sifatida qimmatli qog'ozga va kreditga transformatsiyalanib bozor muomalasida bo'lishi mumkin.

Aynan yuqorida aytilganlarning asosida moliya bozori alohida bozor muhiti sifatida effektivlik darajasiga erishadi. Bunda moliyaviy instrumentlar o'z real moliyaviy bazisi va maxsus iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta'minlanganligi tushuniladi.

Moliya bozorining yuqori darajada tashkillashganligi uning alohida faoliyat mexanizmi bilan belgilanadi. Bu mexanizm iqtisodiyotning qonun va kategoriyalarini to'liq amal qilishi negizida va davlatning regulyativ siyosati asosida moliya bozorining barcha qatnashchilarini bevosita ishtiroki natijalari bilan belgilanadi, davlat va iqtisodiyot sub'yektlari tomonidan birgalikda harakatga keltiriladi.

Moliya bozorining xossalari quyidagilardan kelib chiqadi:

- moliyaviy instrumentlar va ular bo'yicha iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni ta'minlovchi tashkillashgan murakkab infratuzilmaga (institutSIONal va funksional tuzilmaga) va faoliyat mexanizmiga ega dinamik tizim;

- ochiqlik, teng imkoniyat, erkin raqobat, obyektiv bozor bahosi, risklilik, omillar va voqeliklarni (jarayonlarni) o'lchamliligi (tahlil qilinishi, baholanishi va prognozlanishi mumkinligi);

- moliyaviy instrumentlarning monetizatsiyalashgan real bazis va sifat bilan ta'minlanganligi, standartlashganligi va unifikatsiyalanganligi;

- bozor va uning qatnashchilarini transparentliligi (informatsion shaffofligi);

- moliyaviy instrumentlarning optimal hajmi va obyektiv narxlarini real talab va taklifdan kelib chiqqan holda shakllanishi;

- moliyaviy instrumentlarning erkin muomalasi industriyasi uchun bozor infratuzilmasi bilan ta'minlanganligi;

- bozor qatnashchilarining biznes quvvati potentsiali (sifat parametrlari darajasi miqdori bo'yicha);

- bozorni tartiblashtirilganligi (muvofiqlashtirilishi va nazorat qilinishi darajasi bo'yicha).

Moliya bozorining muhim xossalariga quyidagilar kiradi: bozor geografiyasi kengligi va chegaralari, bozorning tashkiliy modeli parametrlari, bozorni raqobatbardoshligi va havfsizligi darajasi, bozorning risklilik darajasi, bozorning jalbdorligi, bozorning egiluvchan moslashuvchanligi darajasi, bozorni iqtisodiyotga ekvivalentlilik darajasi, bozorning funksiyalarini bajarishi darajasi, bozorni omillarga ta'sirchanligi darajasi. Sanab o'tilgan xossalar moliya bozori muhitining quvvat potensialini belgilaydi va rivojini shakllantiradi. Ya'ni, moliya bozori muhitining quvvat potentsiali darajasi - bosh (integral) xossa sifatida - moliya bozorining sanab o'tilgan xossalari darajasi miqdori bilan belgilanadi va baholanadi.

Moliya bozori muhiti tabiatan yuqorida keltirilgan xossalar va o'zaro bog'langan unsurlar bilan to'ldirilgan qandaydir tizimli fazo (efir) deb qaralsa, unda u ilmiy nuqtai nazardan ma'lum bir quvvat potensialiga ega bo'ladi. Moliya bozorining quvvat potentsiali uning unsurlarini (asosan qatnashchilarini) muhit ichida o'z manfaatlari maqsadida (yo'lida) qandaydir kuchlanish bilan ta'sir etuvchi kuchi miqdori bilan ifodalashi mumkin. Bozor qatnashchilarining manfaatlari bir-biriga zid bo'lganligi munosabati bilan bozorda ma'lum sharoitlarda kuchlar muvozanati vujudga keladi, ya'ni moliya bozorida talab va taklifning muvozanat holati paydo bolishini kuzatish mumkin. Odatda, bu muvozanat qisqa vaqtdan so'ng tez buziladi. Masalan, bozorda xaridor arzonga olishni hohlaydi, sotuvchi esa qimmatroqqa sotishga harakat qiladi. Pirovardida, ikkala taraf muayyan vaqtda kopromissga keladi, natijada vaqtinchalik manfaatlar muvozanati vujudga keladi. Lekin vaqt o'tgach, bozor quvvati potentsiali o'zgarishi bilan taraflar manfaati ham o'zgaradi, natijada yangi muvozanat (kompromiss) holatiga zamin paydo bola boshlaydi va h.k. Umuman olganda bozor tendensiyasi tolqinsimon spekuliyativ sakrashlar tusini oladi. Moliya bozorining bu xususiyati



ayniqsa qimmatli qog'ozlar segmentida (bozorida) kuchli namoyon bo'ladi. Moliya bozorining ushbu xususiyati uni hom-ashyo va boshqa turdagi tovar (jumladan xizmatlar) bozorlaridan farqlaydi. Bunga sabab, tovar va hom-ashyo bozorlaridagi taklif ishlab chiqarishga bog'liq, talab esa iste'molga bogliq. Lekin, taklif talabdan kelib chiqadi va aksincha, talab taklifdan kelib chiqadi, ya'ni ular bir-birida mujassamlanib, sabab-oqibatni bogliqlikda bo'ladi.

Shunday qilib, yuqoridagilarning barchasi moliya bozorining mazmuni va xususiyatlarini ifodalaydi.

## **1.2. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi o'rni**


Moliya bozorining bozor munosabatlari tizimidagi ahamiyati uni tomonidan quyidagi qulay sharoitlarni ta'minlanishi bilan bog'liq asosiy vazifalari asosida belgilanadi:

- iqtisodiyotning real sektoriga investision moliya resurslarni samarali jalb qilinishi;
- kapitalni samarasiz tarmoqdan samaralisiga qayta taqsimlanishi;
- davlat byudjetiga xizmat ko'rsatishi, uning kamomadini (defisitini) qoplash uchun pul mablag'larini samarali jalb qilinishi;
- iqtisodiyotning holatini aniq bozor indikatorlari yordamida baholanishi;
- inflyatsiya sur'atlari (templari) va valyuta kurslari o'zgarishiga operativ ta'sir ko'rsatilishi;
- davlatning kredit-pul va byudjet-soliq siyosatini obyektiv va mutanosiblikda olib borilishi;
- mulkka egalik huquqini ishlab chiqarish vositalariga qayta taqsimlanishi;
- jahon globallashuvi jarayonlariga milliy iqtisodiyotni integrallashuvi.

Moliya bozorini mamlakatning umumiy bozori muhitidagi o'rnini 1-rasmda ko'rsatilganidek ifodalash mumkin. Unda mos ravishda tashqi aylanma bilan ko'rsatilgan yuza I - umumiy bozor muhitini (fazosini), II-chi va III-chi - yuzalar qisqa va o'rta-uzoq muddatli birjadan tashqari moliya instrumentlari bozorlari muhitini, IV-chi va V- chi yuzalar qisqa, o'rta va uzoq muddatli birjadan tashqari

qimmatli qog'ozlar bozorlari muhitini, VI-chi yuza (yadroviy fazo) fond birjasi muhitini ifodalaydi.

Ta'kidlash joizki, VI-yuza eng yuqori darajada tashkillashtirilgan va obyektiv narx-navo bozor muhiti hisoblanadi, I-chi yuza esa uning aksidir. Bunda I-chi va II-chi yuzalar oralig'idagi halqa hufiya bozorni anglatadi. Sezish mumkinki, o'ta rivojlangan hususiy mulkchilik tizimi sharoitida<sup>5</sup> moliya bozorining yuqori darajada rivojlantirish, atribut va unsurlarini yuqori quvvat potentsialiga erishtirish evaziga hufiya bozor hajmi qisqarishi mumkin (bunga industrial rivojlangan mamlakatlarning, masalan, AQSh, Germaniya, Yaponiya, moliya bozorlari misol bo'la oladi).



**1-rasm. Moliya bozorini mamlakatning umumiy bozori muhitidagi o'rnini ifodalovchi model<sup>6</sup>.**

Ushbu model (1-rasm) moliya bozorining umumiy bozor muhitida joylashgan

<sup>5</sup> Эрнандо де Сото. Загадка капитала. Почему капитализм торжествует на Западе и терпит поражение во всём остальном мире./ Пер. с англ. -М.: Олимп-Бизнес, 2001. 270 с.

<sup>6</sup> Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 440 b.

o'rnini yaqqol ifodalagan holda, uni iqtisodiyotda markaziy o'ringa egaligini anglatadi. Chunki moliya bozori orqali iqtisodiyotning barcha sub'yektlari o'zaro bog'langan bolib, ularing har biri o'zining manfaati maqsadida moliyaviy instrumentlar yordamida iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni amalga oshiradi.

Moliya bozorining iqtisodiyotdagi funksiyasi asosida uning o'rni va rolini makroiqtisodiy pozitsiyadan ko'rish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, mamlakatda tayyor mahsulotlarning (xizmatlarning) umumiy taklifi (Y) harajatlar komponentlari orqali topilishi mumkin, ya'ni  $Y=C+I+X-M+TR$ . Ushbu ifodadagi parametrlarni quyidagicha belgilab olamiz:  $C+I=A$  (absorbtsiya),  $Y-C=S$  (milliy jamg'armalar),  $X-M+TR=CAB$  (mamlakatning joriy to'lov balansining hisobi). Natijada, quyidagi ifodalarni olish mumkin:  $Y-A=S-I$  va  $S-I=CAB$ .

Bu tengliklar mamlakatda daromadlar va harajatlar o'rtasidagi ichki makroiqtisodiy disbalansni tashqi disbalans bilan bog'liqligini bildiradi. Ikkala disbalans ham jamg'armalar va investitsiyalar o'rtasidagi disbalansga olib keladi, demak, ular iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Bunda esa moliya bozorining qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli beqiyosdir. Chunki aynan moliya bozori yordamida jamg'armalar shakllanadi va ular samarali investitsiyalarga transformatsiyalanib yana jamg'armalarga aylanadi. Aynan investitsiya siyosati bilan boshqariluvchi shu davriy transformatsion jarayonni jamg'armaviy-investitsion muhit, ya'ni (S-I)- muhit, deb atalsa bo'ladi. Ushbu siyosat innovatsion siyosat bilan bog'langanda mos ravishda (S-I)-muhit va innovatsion muhit uyg'unligi (integratsiyasi), ya'ni [(S-I)+N]-muhit, vujudga keladi. Ushbu kontekstda aytish mumkinki, moliya bozori bir vaqtning o'zida moliyaviy innovatsiyalar bozori ham bo'lib, o'zida moliya injiniringi innovatsiyalarining yaratilishi, transferi va tijoratlashtirilishi katalizatori hamda qulay [(S-I)+N]-muhitini shakllantiradi. Mazkur muhit doirasida investitsiyalar va innovatsiyalarning obyektiv kon'yunkturasi (talab va taklif hajmlarini) shakllanib bir-biriga bolgan talablar qondiriladi, ya'ni ularning (investitsiyalar va moliyaviy innovatsiyalarning) o'zaro bog'liqlikdagi iqtisodiy realizatsiyasi amalga oshiriladi.

Qisqa davr ichida iqtisodiy o'sish moliya bozori orqali mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hisobiga erishiladi. Ammo uzoq muddatli davrda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish quvvatlarini investitsiyalar hajmini kengaytirish yo'li bilan modernizasiyalashuvi va oshirilishini talab etadi. Makroiqtisodiy barqarorlik sharoitida investitsiyalarga bolgan talab esa moliya institutlari yordamida ichki va tashqi jamg'armalar hisobiga qoplanadi.

Bundan ayon boladiki, moliya bozori moliyaviy resurslarni (jamg'armalarni) iqtisodiyotda samarali (effektiv) taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasini amalga oshiradi va iqtisodiyot holatini ifodalovchi «barometr» rolini bajaradi.

Iqtisodiyotda moliyaviy oqimlar inflyatsiya va foiz stavkasiga bogliq holda moliya bozori orqali taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Bunda inflyatsiya va foiz stavkasi moliya bozorining muvozanat holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida aytilganlarga asosan, makroiqtisodiy muvozanatni mos ravishda quyidagi tenglamalar bilan ifodalash mumkin:  $S = I$  (ushbu balansga rioya qilinganda umumiy talab va taklif o'rtasida tenglikka erishiladi, ya'ni  $S=Y-A-X=I$ , bunda  $A=C+G$  - absorbsiya;  $Y-A$  - ichki jamg'armalar;  $X$  - manfiy ishorali tashqi jamg'armalar),  $MV = PT$ .

Ushbu tenglamalar bilan ifodalanadigan makroiqtisodiy muvozanat moliya bozori holatida o'z aksini topadi, ya'ni bozor iqtisodiyotning holatini ekvivalent tarzda aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, moliya bozori iqtisodiyotning «egiz-analogi» sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun moliya bozori iqtisodiyotning «barometridir».


Aytilganlar asosida moliya bozoridagi muvozanatni gipotetik quyidagi muvozanat tenglamasi  $SV = PT$  bilan ifodalash mumkin. Bunda:  $T$  – moliya instrumentlari bo'yicha tuzilgan shartnomalar hajmi (uni umumiy investitsiyalar hajmiga teng deb olsak bo'ladi), ya'ni  $T = I$ ;  $S$  - moliyaviy instrumentlar uchun taklif qilingan jamg'armalar hajmi;  $V$  - investitsiya qilingan jamg'armalarni foyda (zarar) bilan qaytishi tezligi (vaqt oralig'i, likvidligi);  $P$  - moliyaviy instrumentlar bo'yicha tuzilgan shartnomalarning (bitimlarning) bozor narxi. Demak,  $T = I$  ekanligini va IS-LM-modelini hisobga olgan holda moliya bozorining muvozanat

tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$SV = PI \quad (1)$$

Ilmiy nuqtai nazardan (1) tenglamani pulning miqdoriy nazariyasiga o'xshash moliya instrumentlarining (investitsiyalar yoki qimmatli qog'ozlar bozorining) miqdoriy nazariyasi deb olish mumkin.

Ma'lumki,  $S = I$  tenglik byudjet-soliq (fiskal) siyosati asosida,  $MV = PT$  tenglik esa kredit-pul (monetar) siyosati asosida amalga oshiriladi. Bunda  $S \rightarrow I \rightarrow M \rightarrow S$  ko'rinishidagi davriy bog'liqlik ushbu siyosatlarining ekvivalentligini bildiradi. Bu esa (1) tenglamani maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi. Chunki ikkala siyosat ham barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida real iqtisodiyot uchun ishlaganligi (yo'naltirilganligi) uchun, ularning uyg'unlashuvi va optimal balansiga erishish (1) tenglamadan ko'rinib turibdiki, moliya bozori orqali amalga oshirilishi tabiiydir. Ushbu holatni 2-rasmda ko'rish mumkin.



**2-rasm. Moliyaviy oqimlarni moliya bozori orqali harakati modeli<sup>7</sup>**

Bunda (2-rasm) MB - Moliya bozori; B - Markaziy bank; X - Hukumat; UX - uy ho'jaliklari; F - firmalar; S1-S4 - B, X, UX va Firmalarning moliya bozori (MB) bilan bog'lanadigan lokal sikllari. Ushbu sikllar orqali mos ravishda moliyaviy

<sup>7</sup> Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 440 b.

oqimlar harakati moliya bozori qatnashchilari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda Hukumat va Uy ho'jaliklari, Hukumat va Firmalar o'rtasidagi bog'lanish «daromad- soliq» aylanmasi tashqi sikllari bo'yicha tashkillashgan.

2-rasmdagi modelda har bir sikl ma'lum maqsad asosida harakat qiladi va bir-biri bilan bevosita va (yoki) bilvosita bog'liq bo'lib, ularning tezligi va hajmi bozor kon'yunkturasiga bog'liq.

Demak, modeldan ko'rinib turibdiki, moliya bozori iqtisodiyotda markaziy o'ringa ega, iqtisodiyotning barcha sub'yektlari uning kon'yunkturasi ta'sirda va o'zaro bog'liqlikda faoliyat yuritadilar. Shu bilan birga, moliya bozori iqtisodiyotga bogliqlikda faoliyat yuritadi. Bunda moliya bozori o'zining moliyaviy instrumentlari vositasida iqtisodiyot sub'yektlarini investitsiya bilan ta'minlaydi, resurslarni ularning o'rtasida samarali taqsimlaydi va qayta taqsimlaydi.

Ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlar moliyaviy resurslar harakatining katta qismini qamraydi. Qimmatli qog'ozlardan tashqari moliya bozorida ssuda va kreditlar, subsidiya va subvensiyalar, oltin va valyutaiar, sug'urta vositalari muomalada bo'ladi. Ularning har biri o'ziga mos siklda va moliya bozori segmentlarida samarali harakat qiladi. Bunda qimmatli qog'ozlar va ularning real bazisi miqdorlarini ko'pincha bir-birlariga mos kelmasligi hamda ularni bozorda bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda harakat qilishi mumkinligi qimmatli qog'ozlar bozorining xususiyati hisoblanadi.

Moliya bozori bir qator funksiyalarni bajaradi. Ularni to'rt guruhga ajratish mumkin: makroiqtisodiy, umumbozor, maxsus (ixtisoslashgan) va globallashtirish (meta, ya'ni xalqaro darajada moliyaviy globallashtirish) fiinksiyalarga.

Makroiqtisodiy funksiyasi jamg'armalarni investitsiyalarga aksincha investitsiyalarni jamg'armalarga samarali transformatsiyasini va natijada qulay (S-I)-muhitni ta'minlab berishdan iborat.

Umumbozor funksiyasi, odatda, har bir milliy bozorga mansub. Maxsus funksiyasi esa uni boshqa turdagi bozoriardan farqlaydi.

Umumbozor funksiyasiga quyidagilar kiradi:

- tijoratni rivojlantirish funksiyasi (bu funksiya bozor qatnashchilarining

o'zaro raqobat asosida daromad olishini ta'minlovchi funktsiya);

- narx-navoni belgilash funktsiyasi, ya'ni bozorda moliyaviy instrumentlarning bozor narxlarini (kurslarini) shakllanishi va ta'siri jarayonini, ularni bozor kon'yunkturasiga bog'liq tarzda uzluksiz harakatini (o'zgarishini) ta'minlaydi (bozor kurslari qanchalik tez shakllanib barqarorlashsa, moliya bozorida bu instrumentlar shunchalik samara bilan joylashtiriladi va likvidligi ta'minlanadi);

- informatsiya bilan ta'minlash funktsiyasi, ya'ni bozor o'z qatnashchilariga savdo obyektlari va savdo ishtirokchilari to'g'risidagi axborotni shakllantiradi va havola qiladi;

- tartiblashtiruvchi (muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi) funktsiya, ya'ni bozor o'zidagi savdo va unda ishtirok etish, qatnashchilar o'rtasidagi munosabatlar me'yorlarini va nizolarni hal qilish tartiblarini joriy qiladi, ustuvor yo'nalishlarni aniqlaydi, nazorat organlarini va tartiblarini belgilaydi, bozor qatnashchilari tomonidan bu me'yor va tartib-qoidalarga rioya qilinishini nazorat qiladi va h.k.

Moliya bozorining maxsus funktsiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasi. Uni o'z navbatida to'rt kichik funktsiyaga ajratish mumkin: 1) moliyaviy resurslarni tarmoqlar va bozor faoliyati sohalari (sferalari) o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash; 2) jamg'armalarni, ayniqsa aholi jamg'armalarini, noishlab chiqarish shaklidan ishlab chiqarish shakliga o'tkazish (transformatsiyalash); 3) noinflyatsion asosda davlat byudjetini moliyalashtirish, ya'ni qo'shimcha pulni muomalaga chiqarmasdan; 4) pul massasini boshqarish;

-moliyaviy risklarni oldini olish va narx funktsiyasini, yoki xosilaviy qimmatli qog'ozlarni (fyucherslar, opsionlar, svop, forvard va h.k.) paydo bo'lishi evaziga xedjirlash.

Moliyaviy globallashtirish funktsiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- moliyaviy resurslarni umumjahon miqyosida globallashtirish va iqtisodiyot doirasida samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi;

milliy moliya bozorlarini o'zaro integratsiyalashuvi (uyg'unlashuvi);

- moliya bozorlarini internatsionallasuvi;
- jahon globallasuvi jarayonlari (barcha yo'nalishlarda) rivojini / katalizatori va h.k.

Moliya bozori vazifalarini asosiy va qo'shimchalarga ajratish mumkin. Asosiy vazifalari uning bozor munosabatlari tizimidagi ahamiyati va qulay sharoitlarni ta'minlashi bilan ifodalanadi (ular yuqorida sanab o'tilgan).

Moliya bozorining qo'shimcha vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- emitentning moliya oqimlarini optimallashtirish;
- bozor qatnashchilarining ijobiy imidjini shakllantirish;
- emitentning iqtisodiy manfaatlarini himoyalash;
- biznesni rivojlantirish va qo'shimcha ish joylarini yaratish; •
- jahon moliya tizimiga integratsiyalashtirish;
- siyosiy hujm, moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik, moliyaviy repressiya va valyutaviy intervensiya vositasi sifatida ta'sir ko'rsatish;
- investorlarning huquqlarini himoyalash va maqsad-manfaatlarini ta'minlash.

Moliya va qimmatli qog'ozlar bozori faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillariga rioya etilishi davlatning tartibga solishga oid chora- tadbirlari bilan birga fond birjalari va bozor qatnashchilarining birlashmalari (uyushmalari) ishlab chiqqan qoidalarini uyg'unlashtirish asosida ta'minlanadi.

Yuqorida aytilganlardan iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va moliya bozori orasidagi o'zaro bog'liqlik mavjudligini, demak moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati kuchliligini ko'rsatadi.

### **1-bob bo'yicha xulosa**

Moliya bozorining mohiyati va uning iqtisodiyotdagi o'rni o'rganilib, quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Moliya bozori - bu moliya-kredit sohasining tarkibiy qismi bo'lib, real bazisiga ekvivalent moliyaviy instrumentlar (kreditlar, lizing, depozitlar, valyuta, qimmatli qog'ozlar, sug'urta va pensiya polislari, derivativlar va boshqa turdagi



moliyaviy mahsulotlar) bilan bog‘liq tashkillashgan iqtisodiy- huquqiy-informatsion mexanizm bilan ta‘minlangan munosabatlarni iqtisodiyot sub‘yektlari tomonidan maqsadli amalga oshirilishi uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo‘luvchi tizim.

2. Moliya bozorining muhim xossalariga quyidagilar kiradi: bozor geografiyasi kengligi va chegaralari, bozorning tashkiliy modeli parametrlari, bozorni raqobatbardoshligi va havfsizligi darajasi, bozorning risklilik darajasi, bozorning jalbdorligi, bozorning egiluvchan moslashuvchanligi darajasi, bozorni iqtisodiyotga ekvivalentlilik darajasi, bozorning funksiyalarini bajarishi darajasi, bozorni omillarga ta‘sirchanligi darajasi.

3. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi funksiyasi asosida uning o‘rni va rolini makroiqtisodiy pozitsiyadan ko‘rish muhim ahamiyatga ega.

4. Qimmatli qog‘ozlar moliyaviy resurslar harakatining katta qismini qamraydi. Qimmatli qog‘ozlardan tashqari moliya bozorida ssuda va kreditlar, subsidiya va subvensiyalar, oltin va valyutalar, sug‘urta vositalari muomalada boladi.

5. Moliya bozori bir qator funksiyalarni bajaradi. Ularni to‘rt guruhga ajratish mumkin: makroiqtisodiy, umumbozor, maxsus (ixtisoslashgan) va globallashtirish (meta, ya‘ni xalqaro darajada moliyaviy globallashtirish) funksiyalarga.

## **2-BOB. RESPUBLIKA MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARINING UZOQ MUDDATLI RESURLARNI SHAKLLANTIRISH HOLATI TAHLILI**

### **2.1. Qimmatli qog'ozlar bozori va unda tijorat banklarining uzoq muddatli resurslarni jalb qilish**

XX asrning iqtisodiy taraqqiyoti shuni to'liq tasdiqladiki, faqat bozor iqtisodiyotigina xalq xo'jaligi samaradorlik ko'rsatkichlarining eng yuqori darajasini ta'minlaydi. Bozor mexanizmining samaradorligi ko'p jihatdan iqtisodiyotning tovar-pul munosabatlari bilan qanchalik to'liq qamrab olinganligiga bog'liq. Bu tovar bozorlari bilan bir qatorda moliya bozorini, jumladan, qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish zarurligini anglatadi. Bozor iqtisodiyoti qimmatli qog'ozlarning rivojlangan aylanmasisiz amal qilishi mumkin emas. Qimmatli qog'ozlar bozori-bu jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularning muomalada bo'lishi va so'ndirilishi bilan bog'liq munosabatlari tizimidir.<sup>8</sup> Har qanday bozor makonini ikki qutbga bo'lish mumkin (rasmga qarang). Ulardan birida kapital etkazib beruvchilar - bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan va ularni saqlash hamda ko'paytirishni istovchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlat turadi. Ikkinchisida esa-yangi ishlab chiqarishni boshlash, ishlar, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlab turgan quvvatlarni zamonalashtirish, kengaytirish, qayta ta'mirlash uchun zarur bo'lgan boshlang'ich yoki qo'shimcha kapitalga muhtoj bo'lgan bozor sub'ektlari turadi. Kapitalning iste'molchilari sifatida korxonalar, tashkilotlar, aholi, shuningdek, davlat ham ishtirok etishi mumkin.

Mablag'larni jalb etish maqsadida kapital iste'molchilari qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaradi va ularni sotish natijasida ishlab chiqarish (savdo-sotiq, moliyaviy faoliyat va h.k.) jarayonini amalga oshirish uchun mablag' oladi. Kapital iste'molchilari (emitentlar) va etkazib beruvchilari (sarmoyadorlar)

---

<sup>8</sup> Мвасенко А.Г. Рынок ценных бумаг: Инструменты и механизмы функционирования: Учебное пособие. – 2-е изд., перераб. / А.Г. Ивасенко, Я.И. Никонова, В.А. Павленко. – М.: Кнорпус, 2005. – 272 с.

o'rtasidagi munosabatlar qaytarilish, to'lovlilik yoki mol-mulkka egalik qilish huquqini o'tkazish shartlari bilan amalga oshiriladi.

Biroq emitentlar yoki sarmoyadorlar bir-birlarini "topishlari" uchun ushbu jarayonda yordamchi bo'lsada, ammo juda muhim rol o'ynovchi emitentlar, sarmoyadorlar, shuningdek, tashkilotlar va yakka tadbirkorlarning oqilona o'zaro munosabatlarini ta'minlovchi, infratuzilma, deb nomlanuvchi yordamchi sub'ektlarning ancha murakkab muassasaviy (institutSIONAL) tizimi zarur.

Qimmatli qog'ozlar bozorining muassasaviy infratuzilmasi umumiy va maxsus tabaqalarga bo'linadi.<sup>9</sup> Umumiy infratuzilmani namoyon qiluvchi tashkilotlarga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilishda umumiy yordamchi vazifani bajaruvchi, muassasalar kiradi. Ularsiz qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lmagan yoki murakkablashgan bo'lar edi. Bularga axborot agentliklari, nashriyot, gazeta va jurnallar (matbuot), tele va radiokompaniyalar, tijorat banklari, auditorlik tashkilotlari, notarial, yuridik hamda advokatlik idoralari, sug'urta kompaniyalari kiradi. Qimmatli qog'ozlar bilan tuziladigan bitimlarga xizmat ko'rsatishga ko'maklashuvchi vazifalarni bajarish uchun ularga qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga ruxsat beruvchi maxsus litsenziyalarning zarurati yo'q. Ayni paytda bunday tashkilotlar davlat boshqaruvi organlarining, xususan, Markaziy bank (tijorat banklari), Moliya vazirligi (auditorlik va sururta kompaniyalari), Adliya vazirligi (advokatlik, yuridik va notarial idoralar), Davlat matbuot qo'mitasi (nashriyotlar, gazetalar, jurnallar)ning maxsus faoliyat turini amalga oshirish uchun litsenziyalariga ega bo'lishni kerak. Mazkur sub'ektlarning faoliyati ushbu xolatda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga kredit-hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish, emitentlar hisobi va moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi hamda umumiy belgilangan me'yorlarga mos kelishini tasdiqlash, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, almashuvi, sovg'a qilinishi shartnomalarini tasdiqlash, ular bilan bajariladigan operatsiyalarni sug'urtalash, sarmoyadorlarni va fond boyliklari bilan

---

<sup>9</sup> Стародубцева Е.Б. Рынок ценных бумаг: Учебник. – М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М, 2006. – 176с.

professional faoliyat yurituvchi shaxslarni bozordagi vaziyatdan xabardor qilish va hokazolardan iborat bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, qimmatli qog'ozlar bozorida birja faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar (fond birjalari, tovar-xom ashyo, valyuta va boshqa birjalarning fond bo'limlari) hamda investitsiya muassasalari maxsus infratuzilmani o'zida namoyon qiladi.

Investitsiya muassasalariga investitsiya vositachilari (brokerlar-dilerlar), investitsiya maslahatchilari, investitsiya fondlari, investitsiya kompaniyalari, boshqaruvchi kompaniyalar, qimmatli qog'ozlar egalarning reestrlarini saqlovchilar, depozitariylar, hisob-kitob-kliring palatalari, qimmatli qog'ozlarning nominal egalari kiradi.<sup>10</sup>

Birjalarda bevosita bozorlarga chiqarilmaydigan, xujjatlar bilan tasdiqlangan aniq sifat va miqdor xususiyatlariga hamda talab va taklif asosida belgilanadigan narxga ega bo'lgan ayrim fond boyliklari sotiladi va xarid qilinadi. Birjaga savdoda ishtirok etishni xoxlovchi barcha shaxslarga emas, faqat uning a'zosi bo'lgan professional ishtirokchilarga ruxsat etiladi. Qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolari har bir birja tomonidan maxsus ishlab chiqilgan qimmatli qog'ozlar bozoridagi qonunchilikka qat'iy rioya etilishini, birja savdolarining barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratilishini, birja savdolariga kiritilgan qimmatli qog'ozlar to'g'risida ishonchli va to'liq ma'lumotlarning e'lon qilinishini, tuzilayotgan bitimlar to'g'risida axborotning oshkor etilishini va hokazolarni nazarda tutuvchi qoidalar asosida olib boriladi. Birjada oddiy qimmatli qog'ozlar bilan emas, faqat alohida talablarga javob beradigan qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilinadi. An'anaviy tarzda fond birjasi-bu eng yaxshi qimmatli qog'ozlarning bozoridir.<sup>11</sup>

Qimmatli qog'ozlar bilan savdolar birja bozorida ham, birjadan tashqari bozorda ham mazkur bozor ishtirokchilarining o'zlari ishlab chiqqan va qonuniy

---


<sup>10</sup> Рынок ценных бумаг: Учебник / Под ред. В.А.Галанова, А.И.Басова. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2006. - 448 с.

<sup>11</sup> Butikov I. «Qimmatli qog'ozlar bozori». Toshkent. «Konsauditinform» 2001 yil. 86 b.

tartibda mustahkamlangan tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Fikrimizcha bunday tamoyillarga qo'yidagilar kiradi:

- qimmatli qog'ozlar bozorida tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligi;
- aniq yuzaga kelgan talab va taklif asosida narxlarni belgilash;
- qimmatli qog'ozlar bozoriga oid qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilish;
- qimmatli qog'ozlar, ularning emitentlari, narxlari, birja va birjadan tashqari bitimlar haqidagi axborotlarni majburiy ravishda oshkor etish;
- sarmoyadorlar huquqlari va manfaatlarini himoyalash;
- qimmatli qog'ozlar bozorida tovlamachilik va nayrangbozliklarning taqiqlanishi va ta'qib qilinishi.

“Toshkent” Respublika fond birjasi mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy savdo maydoni hisoblanadi.



### **3-rasm. Toshkent fond birjasining 2013-2017 yillardagi aylanmasi<sup>12</sup>**

2017 yilda birja faoliyatida sezilarli jonlanish kuzatilib, savdo aylanmasining umumiy hajmi 298,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.

2017 yilda fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan bitimlar soni 2572 tani tashkil etgan holda, yil davomida birja savdolari orqali 99 ta aksiyadorlik jamiyatining 1 551,6 mln. dona qimmatli qog'ozi bilan birja bitimlari amalga oshirildi. Garchi fond birjasi savdo aylanmasida so'nggi yillarda ma'lum darajada o'sish kuzatilayotgan bo'lsa-da, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va takliflarning bir yerda jamlanishini yetarli darajada, deb bo'lmaydi. Bu esa, o'z

<sup>12</sup> www.uzse.uz “Toshkent” Respublika fond birjasi hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

navbatida, qimmatli qog'ozlarning yuqori likvidligini oshirish hamda aksiya qiymatini to'g'ri aniqlash imkoniyatini bermaydi. Tahlillarga ko'ra, 2017 yilda fond birjasida 248 ta savdo sessiyasi o'tkazilib, kuniga o'rtacha 10 tadan bitim amalga oshirildi. Ayrim listing kompaniyalari aksiyalari bo'yicha birorta ham bitim tuzilmagan. Xususan, hisobot davrida birja kotirovkalash varag'iga kirgan aksiyadorlik jamiyatlarining 53 foizi birja savdolarida ishtirok etgan.

## 1-jadval

### «Toshkent» fond birjasining birja aylanmasi ko'rsatkichlarning tahlili<sup>13</sup>

Ko'rsatkichlar	2016 y.	2017 y.	O'zgarishi
Birjada savdo qilingan AJlarning soni	141	99	-29,8
Bitimlar soni, dona.	3080	2572	-16,5
Qimmatli qog'ozlar soni, mln. dona	689,1	1 551,6	+125,2
Bitimlar summasi, mlrd. so'm	299,8	298,6	-0,4


2017 yilda Yagona dasturiy-texnik kompleksga kiruvchi birja savdo platformasidagi "Stock Market" aksiyalar bozorining quyidagi savdo seksiyalarida savdo bitimlari amalga oshirildi. Asosiy seksiyada ("Main Board") 92,3 mlrd. so'mlik 2348 ta bitim qayd qilingan (yil davomida tuzilgan umumiy bitimlar sonining 91,3 foizi). Jismoniy shaxslar uchun kliringsiz bitimlar tuzish imkoniyatini beruvchi seksiyada ("NC Board") 0,15 mlrd. so'mlik 201 ta bitim tuzilgan. Shuningdek, muzokaralar auksioni tarzidagi seksiyada ("Nego Board") 78,8 mlrd. so'mlik 11 ta bitim tuzildi.

Qayd etib o'tish lozimki, "Trastbank" XAB tomonidan bank kapitalini ko'paytirish maqsadida qo'shimcha chiqarilgan 60,0 mln. dona aksiyaning asosiy qismi "Nego Board" seksiyasi orqali joylashtirilishi ushbu seksiyada birja savdolarining yuqori bo'lishiga xizmat qildi. Qimmatli qog'ozlarni xorijiy valyutada sotish "FTC Market" bozorining asosiy seksiyasida ("Main Board") 2 ta aksiyadorlik jamiyatining qimmatli qog'ozlari bilan 1,9 mln. AQSh dollarilik 4 ta bitim (savdo kunidagi Markaziy bank kursi bo'yicha 7,9 mlrd. so'm) hamda muzokaralar auksioni tarzidagi seksiyada ("Nego Board") "UTBank" AJning 20,46 mln. dona aksiyasi bilan (hozirda "Ziraat Bank Uzbekistan" AJ) 14,0 mln.

<sup>13</sup> www.uzse.uz "Toshkent" Respublika fond birjasi hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

AQSh dollari yoki savdo kunidagi Markaziy bank kursi bo'yicha 113,3 mlrd. so'mlik 2 ta bitim tuzildi. Umuman, "FTC Market" bozorining yillik birja savdo aylanmasidagi ulushi 40,6 foizni tashkil etdi. Shuningdek, o'tgan yilda "Bond Market" obligatsiyalar bozorining asosiy seksiyasida "O'zsanoatqurilishbank" ATBning 20 090 dona va "Kapitalbank" ATBning 1 000 dona korporativ obligatsiyasi bilan 3,0 mlrd. so'm miqdorida 5 ta bitim imzolandi. Bundan tashqari, 2017 yilda "blok-treyding" savdo seksiyasida aksiyadorlik jamiyatiga xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida birja savdolariga qo'yilgan "Qurilishmashlizing" AJ ustav fondining 15 foizini tashkil etuvchi aksiya paketi bilan 3,0 mlrd. so'mlik 1 ta bitim imzolandi.

Fond birjasi faoliyatining o'tgan yilgi savdo aylanmasi tahlili iqtisodiyotning moliyaviy sektori, ya'ni bank, sug'urta va lizing sohasidagi kompaniyalar qimmatli qog'ozlari yuqori investitsion jozibadorlik kasb etganini ko'rsatdi. Moliyaviy tarmoqning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 87,8 foiz yoki 262,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan holda, shundan 257,6 mlrd. so'mlik qismi yoki 86,3 foizi tijorat banklarining, 3,1 mlrd. so'mlik qismi (1,0 foiz) lizing kompaniyalari hamda 1,5 mlrd. so'mlik qismi (0,5 foiz) sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bitimlardan iborat bo'ldi.



**4-rasm. Birja aylanmasining tarmoq strukturasi<sup>14</sup>**

<sup>14</sup> www.uzse.uz "Toshkent" Respublika fond birjasi hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

O'tgan yildagi eng yirik bitim 30 noyabr sanasida "UTBank" AJning 20,46 mln. dona aksiyasi bilan 14,0 mln. AQSh doll. (savdo kunidagi MB kursi bo'yicha 113,3 mlrd. so'm) miqdorida tuzildi. Butun yil davomida esa "UTBank" AJning aksiyalari bilan 113,37 mlrd. so'mlik 4 ta savdo bitimi amalga oshirildi hamda ushbu bank fond birjasida savdo aylanmasi hajmi bo'yicha yilning eng peshqadam emitenti deb topildi (yillik savdo aylanmasining 38,0 foizi). Shuningdek, o'tgan yil davomida qimmatli qog'ozlari bilan savdo aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan TOP-5 emitentlarga "Trastbank" XAB (26,6 foiz), "Asia Alliance Bank" ATB (6,2 foiz), "Turkiston" XATB (5,7 foiz) va "Savdogarbank" ATB (5,0 foiz) kirgan holda, ularning qimmatli qog'ozlari bilan fond birjasida jami 243,5 mlrd. so'mlik savdo bitimlari amalga oshirildi. Bu yillik savdo aylanmasining 81,6 foizi demakdir.

Respublikamiz qimmatli qog'ozlar bozorining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy ko'rsatkichi bu - ikkilamchi bozorning rivojlanish darajasi hisoblanadi. Tahlillarga ko'ra, so'nggi besh yil davomida fond birjasi savdo aylanmasida qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori ustunlik mavqeiga ega bo'lmoqda.

## **2.2. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan uzoq muddatli resurslarni jalb qilish operatsiyalari**

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga asosan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi turli xil faoliyat olib borishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda, «qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida»gi qonuning 17-moddasiga muvofiq, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati mazkur qonun shuningdek, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlar bilan tartibga solinishi belgilangan.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga binoan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida quyidagi:

- qimmatli qog'ozlar (veksel, aksiya, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar va



boshqalar)ni chiqarish;


- qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish, saqlash, ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;

- tovar etkazib berish va xizmat ko'rsatishdan kelib chiqadigan talab huquqini olish, bunday talablarni inkassatsiya qilish;

- mijozlar ishonib topshirgan operatsiyalarni: mablag'larni jalb etish va joylashtirish va qimmatli qog'ozlarni boshqarish va hokazo ishlarni bajarish;

- fond bozori ishtirokchilariga bu borada bank faoliyati yuzasidan maslahatlar berish kabi operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Bugungi kunda tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini 5–rasmda ko'rsatilgandek bir nechta operatsiyalarga tasniflash mumkin.



### **5-rasm. Banklarning qimmali qog'ozlar bilan operatsiyalari tasnifi<sup>15</sup>**

Har qanday mamlakatning QQBda bank roli oshishining asosiy omili bo'lib–

<sup>15</sup> Abdullaeva Sh.Z. «Bank ishi» Darslik. Toshkent–2003 y. 54 b.

o'sha mamlakat xo'jalik sub'ektlarining moliya resurslari bilan keng doirada foydalanishini ta'minlovchi, hamda yuqori innovatsion–investitsion faoliyati va ularning moliyaviy risklarini sug'urtalash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlab beruvchi zamonaviy va sifatli bank xizmatita bo'lgan talabining yil sayin oshib borayotgani hisoblanadi.

Barcha mamlakatlarda hozirgi davrga kelib tijorat banklarining investitsion faoliyati va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalaridan tushayotgan daromadlari foydaning shakllanishida tobora sezilarli rol o'ynamoqda.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari ko'p maqsadlarni ko'zlagan holda yuritiladi. Shu bois banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatdan asosiy maqsadlari sifatida:

- qimmatli qog'ozlar chiqarish asosida kredit va hisob-kitob faoliyati yuritish uchun qo'shimcha pul resurslarini jalb qilish;
- qimmatli qog'ozlarga sarflangan va o'z investitsiyalaridan bankka to'lanadigan foiz va dividendlar evaziga va qimmatli qog'ozlarning kurs qiymati oshishi tufayli foyda olish;
- mijozlarga qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga doir xizmatlar ko'rsatishdan foyda olish;
- bankning qimmatli qog'ozlari orqali resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish;
- bankning likvidli mablag'lariga quyilmalarning daromadlilikini ta'minlagan holda likvidlik zaruriy zahirasini saqlab borish;
- mijozlarning qimmatli qog'ozlarni me'yorida olib-sotishdan hamda moliyaviy risklarni qimmatli qog'ozlar hosilalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali sug'urta qilish kabilarni keltirish mumkin.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat shakllarini kengayishi va diversifikatsiyalanishi tijorat banklari boshchiligidagi yirik moliya–bank gruppalarining tashkil bo'lishiga olib keldi. Ular o'z atrofida investitsion fondlar, brokerlik firmalari, trust kompaniyalar, konsultatsion firmalar va hokazolar kabi nisbatan mustaqil tarkibiy bo'linmalarning yuzaga kelishiga

sababchi bo'ldi.

Tijorat banklari xorijiy mamlakatlarda investitsion–bank filiallari va sho'ba korxonalarini tashkil qilib, xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqib bormoqda. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari qonun tomonidan to'g'ridan–to'g'ri chegaralangan mamlakatlarning, aynan o'sha banklar tomonidan ochilgan xorijiy filiallarining investitsion faoliyati doirasi tobora kengayib bormoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faoliyatining yangi shakli sifatida –u yoki bu moliya aktivlariga kapitalni investitsiya qilish bilan bog'liq qator masalalar bo'yicha konsultatsion xizmatlar ko'rsatish bozorga kirib kelmoqda. Konsultatsion xizmatlar ko'rsatish –turli aktivlarning daromadi va risklari o'rtasidagi o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish hamda mijozlar uchun qimmatli qog'ozlarni sotib olish algoritmi va qimmatli qog'ozlar portfelini uning daromad dinamikasini hisobga olgan holda shakllantirish kabilarni amalga oshiruvchi bankning ichki informatsion tizimiga tayanadi.

Aytib o'tganimizdek, tijorat banklari o'z aksiyalari, obligatsiyalari, veksellari, depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlari bilan emitent sifatida, shuningdek o'z hisobidan qimmatli qog'ozlar sotib oluvchi investor sifatida gavdalanadi. Qolaversa, komission rag'batlantirish evaziga qimmatli qog'ozlar bilan vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga egadir (6–rasm).



6–rasm. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati<sup>16</sup>

<sup>16</sup> Butikov I. "Qimmatli qog'ozlar bozori" T.: "Kons auditinform" 2001 y.

Tijorat banklari tomonidan o'z qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishi ko'proq metodik borada ishlab chiqilgan va tartiblashtirilgan. Investitsion va vositachilik faoliyatlari bu darajada emas, lekin shu yo'nalishlarning barchasida banklar deyarli bir xil faollik ko'rsatmoqda.

Tijorat banki—avvalambor moliya bozorida operatsiyalar o'tkazish yo'li bilan foyda olish maqsadini ko'zlagan tadbirkorlik faoliyatining sub'ektidir. Bu maqsadga erishish banklarning xo'jalik sub'ektlariga ma'lum bir qator o'ziga xos moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Zamonaviy yirik tijorat banklari xo'jalik sub'ektlariga ko'plab turli xizmatlar ko'rsatadilar. Bularga—mijozlar aktivlarini ishonchli boshqarish, ya'ni trust operatsiyalari, moliya bozorida brokerlik xizmatlarini ko'rsatish, depozitga mablag'lar jalb qilish va plastik kartochkalarni emissiyasi, kreditlar berish va oldi—sotdi operatsiyalar, depozitar hisob yuritish va qimmatli qog'ozlar andarraytingi, qimmatbaho buyumlarni saqlash uchun seyflarni ijaraga berish, konsultatsion xizmatlar ko'rsatish va h.k. kiradi.

Hammaga ma'lumki, tijorat banklarining nisbatan fundamental vazifasi ayni davrda ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'lgan iqtisodiyotning bir sub'ektlaridan, qo'shimcha moliyalashtirishga talabi bor iqtisodiyotning boshqa sub'ektlariga pul mablag'larini qayta taqsimlashdan iboratdir. Shunday ekan, banklar pul mablag'larini jalb qilib, o'zlariga ishlatish uchun emas, balki oxir oqibatda iqtisodiyotning boshqa sub'ektlari tomonidan ishlatilishiga vositachilik qiladilar. Bunda banklar mijozlar topshirig'i bilan ularning pul mablag'larini joylashtiruvchi brokerlar sifatida gavdalanmasdan, balki mustaqil hal qiladilar. Bank vositachilarning maxsus turiga kiradi. U, mablag'larni jalb qilib, o'ziga majburiyat yaratib oladi. Lekin, bankdan shu pul mablag'larini olgan mijozning o'z majburiyatini bajarish—bajarmasligiga qaramasdan, bank o'zining boshqa mijozlar oldidagi majburiyatini bajarishi shartdir.

Tijorat banklari ham milliy, ham jahon xo'jaligi doirasida qimmatli qog'ozlar bilan bo'lgan aksariyat operatsiyalarining hisob—kitoblarini amalga oshiruvchi tashkilotlar sifatida o'rtaga chiqib minimal muddat ichida savdo oborotiga xizmat

ko'rsatish uchun tayyor bo'lgan iqtisodiyotning moliyaviy resurslarini eng harakatchan qismini o'zida mujassamlashtiradi. Bu resurslar qoida bo'yicha banklarning talab qilingunga qadar hisob raqamlarida jamlanadi.

Iqtisodiyotdagi mablag'larni qayta taqsimlovchi boshqa moliyaviy institutlardan banklarning mohiyatan olib qaraganda farqi—uning pul mablag'larini jalb qilish usulidadir. Masalan, investitsion fondlar o'z mijozlarining qo'yilmalari uchun foizlar to'lovini kafillamaydilar, chunki foizli to'lovlar investitsion fond faoliyatining natijasiga bog'liqdir. Ayrim paytlarda uning faoliyati natijasiz yoki salbiy natija bilan yakunlanishi mumkin. Shunga o'xshash hollar pension fondlarida ham uchraydi. Bank esa depozitlarni jalb qilar ekan, moliya bozoridagi operatsiyalarining taqdiri qanday bo'lishiga qaramasdan, oldindan foiz stavkalarini qat'iy o'rnatib, depozit bo'yicha yoziladigan daromadni kafolatlab qo'yadi.

Shunday qilib, banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari bo'yicha mulohazalarimizni jamlagan holda aytish kerakki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatning yangi, o'ziga xos alohida yo'nalishi—banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati paydo bo'lmoqda. U qimmatli qog'ozlar bilan emission, investitsion va vositachilik operatsiyalarini amalga oshirishni o'zida aks ettiradi. Bu, professional jihatdan murakkab faoliyat bo'lib, chuqur iqtisodiy va yuridik bilimlarni, matematik va informatsion ta'minlanishini hamda qimmatli qog'ozlar bozorining yangi instrumentlari bilan ishlashda yuqori darajada amaliy tajribani talab qiladi. Bankning mohiyati va uning o'ziga xos funksiyalari banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishiga nazariy tarafdan to'g'ri keladi. Chunki banklar pul mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshiradi. Qimmatli qog'ozlar esa pul mablag'larining nusxa ko'rinishidir, ya'ni fiktiv kapitallardir. Bank tomonidan pul mablag'larini harakatga keltirishi natijasida uning mahsuloti yaratiladi—pulning ikkiga ko'paytmasi. Aynan shu ko'paytmasi, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida ham o'z ifodasini topadi.

Banklar moliyaviy resurslarni shakllantirish maqsadida aksiya, obligatsiya, depozit va jamg'arma sertifikatlarni muomalaga chiqaradi. Shuningdek, tijorat

banklari uzoq muddatli resurslarini shakllantirishda ipoteka va subordinar qimmatli qog'ozlari muhim o'rin tutadi. Banklarning qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarini ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga, tijorat banklari ustav va qo'shimcha kapitalini shakllantirish maqsadida aksiya va subordinar qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish bo'yicha operatsiyalari, ikkinchi guruhga esa qisqa va uzoq muddatli resurslarga bo'lgan ehtiyojini qoplash uchun obligatsiya va ipoteka qimmatli qog'ozlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari bilan bog'liq operatsiyalari kiradi.

Shu o'rinda AT "Agrobank"ning resurslarining shakllanishini va uning majburiyatlari tarkibini tahlil qilib qo'ramiz.

## 2-jadval

### AT "Agrobank"ning majburiyatlari tarkibi tahlili <sup>17</sup>

№	Majburiyatlar	2016 y.		2017 y.		o'zgarishi	
		mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da
1	Boshqa banklarning mablag'lari	731,1	21,4	62,6	1,7	-668,5	-19,6
2	Mijozlarning mablag'lari	2033,5	59,4	1915,4	53,3	-118,1	-6,1
3	Muomalaga chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar	144,3	4,2	134,1	3,7	-10,2	-0,5
4	Boshqa qarz mablag'lari	484,5	14,2	1113	31,0	628,5	16,8
5	Boshqa majburiyatlar	26,7	0,8	355,2	9,9	328,5	9,1
6	Foyda solig'i bo'yicha joriy majburiyatlar	2,1	0,1	9,7	0,3	7,6	0,2
7	Qayta sotish maqsadida sotib olingan sho'ba korxonalar majburiyatlari	0	0,0	0,4	0,0	0,4	0,0
8	Jami majburiyatlar	3422,2	100,0	3590,4	100,0	168,2	0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki AT "Agrobank"ning majburiyatlari 2017 yilda 3590,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 168,2 mlrd. so'mga ko'paygan. Majburiyatlar tarkibida eng yuqori ulushga mijozlarning mablag'lari (53,7 %), boshqa qarz mablag'lari (31,0 %) va boshqa majburiyatlar (9,9 %) ega. Ushbu holat bankning depozitlardan yanada ko'paytirish kerakligidan dalolat beradi.

<sup>17</sup> [www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

AT “Agrobank”ning muomalaga chiqargan qarz qimmatli qog’ozlar<sup>18</sup>

№	Majburiyatlar	2016 y.		2017 y.		o’zgarishi	
		mlrd. so’m	% da	mlrd. so’m	% da	mlrd. so’m	% da
1	Depozit sertifikatlari	144,248	100,0	134,084	100,0	-10,164	0,0
2	Xujjatsiz obligatsiyalar	0,016	0,0	0,016	0,0	0	0,0
3	Jami muomalaga chiqargan qarz qimmatli qog’ozlar	144,264	100,0	134,100	100,0	-10,164	0

AT “Agrobank”ning muomalaga chiqargan qarz qimmatli qog’ozlar asosan depozit sertifikatlari va xujjatsiz obligatsiyadan tarkib topgan. Bankning 2017 yilda muomalada bo’lgan qarz qimmatli qog’ozlari o’tgan yilga nisbatan 10,2 mlrd. so’mga kamaygan.

Bank majburiyatlarini tahlil qilganda depozitlarning mulkchilik shakli bo’yicha ham tahlil qilish lozim.

Aksiya va sertifikatlarning bozor bahosi banklarning ushbu bozordagi faoliyatini baholovchi iqtisodiy ko’rsatkich hisoblanadi.

Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarning bozor bahosi ortib borishi ularning oldi–sotdisiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ko’pchilik hollarda tijorat banklari o’z aksiyalari va sertifikatlarining ikkilamchi qimmatli qog’ozlar bozoridagi bahosini oshirish maqsadida investitsion kompaniyalar orqali investor sifatida ham maydonga chiqishi mumkin.

Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarning bozor bahosi moliya bozoridagi mavjud talab va taklif asosida o’rnatiladi. Aksiya va sertifikatlarning nominal va bozor bahosi o’rtasidagi farq ijobiy yoki salbiy bo’lishi mumkin. Agar ushbu farq ijobiy bo’lsa, tijorat banklari moliyaviy jihatdan barqaror va raqobatbardosh ekanligidan dalolat beradi. Mazkur holat banklarning qimmatli qog’ozlar orqali resurslarini oshirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Tijorat banklari aksiya va sertifikatlarining bahosiga ta’sir qiladigan asosiy omillardan biri ularga to’lanadigan dividend miqdori va foiz to’lovlari hisoblanadi. Aksiya va sertifikatlarga to’lanadigan to’lovlar miqdorining yuqoriligi va

<sup>18</sup> [www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz) sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

barqarorligi banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent nufuzini oshirishga bevosita ta'sir qiladi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatning asosida iqtisodiy manfaatdorlik yotadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent, investor yoki vositachi sifatidagi ishtirokiga iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasi bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, banklar qimmatli qog'ozlar bozorida, ayniqsa emitent sifatida qatnashganida inflyatsiya darajasini inobatga olishi lozim.

Bunda asosiy e'tibor, qimmatli qog'ozlarning real daromadiga qaratilishi kerak. Investor bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olganda unga to'lanayotgan dividend yoki bozor bahosining tushib ketmasligi, inflyatsiya hisobidan zarar ko'rmasligi va mo'ljaldagi real daromadni olishi zarur. Shundagina, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitentlik nufuzi ortib boradi. Bu o'z navbatida ularning ustav kapitalini barqaror manbalar hisobidan shakllantirishga va aksiyalari bozor bahosining ortib borishiga imkon yaratadi.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan operatsiyalari bank aktivlarini diversifikatsiya qilishga, risk darajasini pasaytirishga va daromadlarning ortishiga qulay muhit yaratadi. Shu bilan birga, banklarni milliy iqtisodiyotning makro– va mikrodarajadagi rivojlanishida ishtirok etishga imkoniyat beradi.

### **2.3. Pul bozorida banklar tomonidan uzoq muddatli resurslarni shakllantirish**

Tijorat banklarining moliya bozoridan uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning yirik manbalaridan biri banklararo kreditlar hisoblanadi. Banklararo kredit tijorat banklariga qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini zudlik bilan ta'minlash imkoniyatini berish bilan birga, resurslarni muddati jihatidan barqaror manbalar hisobidan shakllantirishga sharoit yaratadi. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, respublikadagi tijorat banklari ushbu manbadan faol



ravishda foydalanishmaydi. Bu holat respublikamizda banklararo kredit bozorining yuqori darajada rivojlanmayotganligidan dalolat beradi.

Banklarning qarz majburiyatlari mablag'leri tarkibida moliya bozoridan jalb qilingan banklararo kredit (BK) resurslari asosiy salmoqni egallaydi. Banklararo kreditlar asosan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lib, odatda ushbu kreditlarni berish va olish jarayoni o'zining tezkorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon bo'yicha asosiy operatsiyalar banklarning vakillik hisobvaraqlari doirasida amalga oshiriladi. Ya'ni, tijorat banklari o'zaro kelishuvga erishganda mablag'lar vakillik hisobvaraqlari orqali o'tkazib beriladi. Shu bilan birga, ushbu kreditlar tijorat banklari uchun nisbatan arzon va muddati jihatidan «uzun» mablag'lar hisoblanadi.

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda banklararo kreditlar alohida o'rin egallaydi. Banklararo kredit bank uchun muhim rol o'ynaydi, banklararo operatsiyalarda ulkan ahamiyat kasb etadi, bir bank boshqa bankning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashishi uchun imkoniyat yaratadi.

Xorijiy va mahalliy iqtisodchilar “banklararo kredit” tushunchasini har xil talqin qilishadi.

Professor O.I. Lavrushin “Banklararo kreditlar – bu banklar bo'sh pul mablag'larini bir – birlari bilan banklararo resurs bozorida almashtirish va oshirishidir” degan<sup>19</sup>.

Bizning fikrimizcha, banklararo kredit xuddi bank kreditidek kreditor sifatida bank ishtirok etadi biroq, banklararo kreditning o'ziga xosligi shu yerda tugamasdan bank nafaqat kreditor sifatida namoyon bo'ladi, balki qarzdor sifatida ham ishtirok etadi. Banklararo kredit, banklar o'rtasida belgilangan shartnoma muddati roziligi va naqd bo'sh pul mablag'lariga chambarchas bog'liqdir.

Demak, banklararo kredit – bu kredit muassasalarining vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'leri banklar tomonidan jalb qilinishi va o'zaro joylashtirilishidir. Tijorat banklari va markaziy banklar kredit munosabatlarning sub'ektlari hisoblanadi. Bo'sh kredit resurslariga ega banklar ularni banklararo kreditlar

---

<sup>19</sup> Лаврушин О.И. и др. Банковское дело. – М.: “ФИС”, 2009

bozori – pul bozorida sotadi. Banklar banklararo kreditlar yordamida o'z likvidligini operativ boshqarishi, zarur holda mablag'larni tez jalb qilishi yoki vaqtinchalik bo'sh turgan kredit resurslarini joylashtirishi mumkin. O'z operatsiyalarini nomuntazam ravishda, yuzaga kelayotgan moliyaviy vaziyatga qarab o'tkazadigan banklar banklararo kreditlar bozori ishtirokchilari hisoblanadi. Diler banklar banklararo kreditlar bozorining eng faol operatorlari bo'lib, ular o'z nomidan va o'z hisobidan ish ko'radi, qarz oluvchi yoki kredit sifatida amal qilishi mumkin. Ular foiz marjasi, mablag'larni joylashtirish va jalb qilish stavkalari o'rtasidagi tafovut tarzida daromad oladi. Nufuzli mijozlarga ega bo'lgan banklarda bo'sh kredit resurslari ko'p bo'ladi. Banklararo kreditlash moliya bozorining eng yirik segmentlari qatoriga kiradi. Banklararo kreditlar ikkinchi daraja banklar balansining likvidligini quvvatlash, shuningdek aktiv operatsiyalar o'tkazish va korrespondentlik hisobvaraqlarini to'ldirish uchun eng operativ manba hisoblanadi.

Tijorat banklari banklararo kredit bozorida quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratishi lozim:

- kredit oluvchining moliyaviy holatini baholash;
- kredit ob'yektini baholash;
- kreditning ta'minlanganligini baholash.

Kredit oluvchi bankning moliyaviy holatini baholashda:

a) bankning moliya bozoridagi iqtisodiy holati, uning barqarorlik darajasi hamda Markaziy bank va davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro munosabatiga ahamiyat qaratiladi;

b) bank balansining passiv va aktiv qismidagi mablag'larning muddati va iqtisodiy jihatdan sifat darajasi tahlil qilinishi zarur.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslari tarkibida Markaziy bankdan olingan kreditlarning hajmi yuqori salmoqni tashkil etadi. Markaziy bank tijorat banklariga kredit berishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, birinchidan qayta moliyalash instrumenti orqali iqtisodiyotda pul–kredit siyosatini amalga oshiradi, ikkinchidan tijorat banklarini arzon moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, Markaziy bankning qayta moliyalash instrumenti mamlakatda pul–kredit siyosatining samarali vositasi sifatida foydalanilmayapti. Vaholanki, xalqaro bank amaliyotida mamlakatda amalga oshirilayotgan pul–kredit instrumentlari ichida ushbu vositadan faol ravishda foydalaniladi. Tijorat banklari Markaziy bankning qayta moliyalash instrumenti asosida qarz majburiyatlarining asosiy qismini shakllantiradi.

Tijorat banklari resurslari tarkibida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asosida berilayotgan mablag'lari arzon moliyaviy manba bo'lib, tijorat banklari ushbu resurslarni mumkin qadar ko'proq jalb etishga ishtiyoqmand bo'lishadi. Chunki tijorat banklar tomonidan aktiv operatsiyalarga joylashtirilgan ushbu mablag'larning foydalilik darajasi yuqori bo'lish bilan birga, banklar uchun nisbatan moliyaviy barqaror manba hisoblanadi.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asosida beriladigan kerditlardan tijorat banklarning barchasi ham foydalana olmasligi salbiy holat bo'lib, ushbu banklarni kredit bozorida faol ishtirok etmayotganligi hamda Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining nisbatan yuqorligi bilan izohlash mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida pul–kredit instrumentlari ichida qayta moliyalash stavkasi eng ko'p qo'llaniladigan samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarda uning stavkasi ham sezilarsiz darajani tashkil etadi.

Banklararo kreditlarning tarkibi va dinamikasi holati bevosita banklararo pul resurslariga bog'liqdir. Banklararo pul resurslari bozorini tahlil qilmasdan turib banklararo kreditlar dinamikasi holatini tushunish qiyinroq bo'ladi.

Bank kreditlarini banklararo kreditga aylanishi ham banklararo pul resurslari bozorida vujudga keladi. Ularning dinamikasi esa pul resurslarini almashtirishi va oshirishi natijasida vujudga keladigan hisob ko'rsatkichlarining umumiy yig'indisidir. Shunday ekan, biz bu rejamizda avval banklararo pul resurslari bozorini holatini undan keyin esa banklararo kreditlarni dinamikasini ko'rib chiqamiz.

Banklararo bozor moliya bozorining segmentlaridan biri hisoblanib, bank investitsiyalarini real iqtisodiyotga bank tizimida jamlangan mablag'larni tez va

samarali qayta taqsimlash orqali joylashtirishni ta'minlaydi. Banklararo bozorning faoliyat yuritishi iqtisodiyot uchun investitsiya bo'yicha ma'lum qarorlarni qabul qilish nuqtai nazaridan ularning umumiy hajmi va samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada iqtisodiy o'sishga erishishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Banklararo bozor faoliyatida tartibga solingan tizimning mavjudligi har qanday zamonaviy bank tizimining asosini tashkil etib, banklarning zaruriy mablag'lardan foydalanishlarini yengillashtiradi, bank bitimlari hajmini ko'payishini ta'minlaydi, qo'shimcha mablag'larni ushlab turish zaruriyatini pasaytiradi. Shuningdek banklarning ham harajatlar evaziga yanada samarali ishlashlariga imkoniyat yaratib beradi. Yaxshi ishlaydigan banklararo bozor nafaqat banklar faoliyatini yengillashtiradi, balki, bozor nomutonosibliklarini vujudga kelishini kamaytiradi. Har qanday bank tizimiga likvidlikni tebranishi xos. Lekin yaxshi faoliyat yuritayotgan banklararo bozor likvidli mablag'larning nazarda tutilmagan iste'moli natijasida vujudga kelgan nobarqarorlikni kamaytiradi va kutilmagan holatlarga nisbatan bank sektori barqarorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi real sektorini rivojlantirish va kichik biznesni qo'llab quvatlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va bunda tijorat banklariga ularni moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan. Ushbu jarayonlarda har bir bankning ishtirok etishi to'g'ridan-to'g'ri ularning mablag'larini boshqarish darajasi bilan bog'liq. Boshqa tomondan esa banklarni likvidliligi va rentabelligi darajasi mavjud aktiv va passivlarini boshqarish samaradorligiga bog'liqdir.

Banklar vaqtinchalik erkin aktivlarni joylashtirish, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun resurslarni jalb qilish va o'zini likvidliligini ta'minlash maqsadida banklararo bozorda ishtirok etadilar. Banklararo bozor ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan va yuqori rentabellikga ega bo'lgan biznes sub'ektlari o'rtasida erkin pul mablag'larini qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Sanab o'tilgan vazifalarni bajarish uchun yaxshi rivojlangan banklararo bozor mavjud bo'lmog'i lozim.

Banklararo bozorda mablag'lar asosan quydagi ko'rinishlarda mavjud bo'ladi.

- banklararo kreditlar;
- banklararo depozitlar;
- korespondent hisoblarining qoldiq mablag'lari;
- vakolatli banklar tomonidan iqtisodiyotni ustivor yo'nalishlarini rivojlantirishga mo'ljallangan markazlashtirilgan kredit mablag'lari;
- auksion asosida taqsimlanadigan markazlashtirilgan kredit mablag'lari.

Tijorat banklari banklararo bozorga asosan quyidagi holatlarda murojat qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB) tomonidan o'rnatilgan zahira me'yorini bajarishlari uchun;
- investitsion loyihalar va kredit operatsiyalariga mablag'lar jalb qilishlari uchun;
- joriy likvidligini ushlab turish uchun (shu jumladan, naqd pullarni mustahkamlash uchun);
- arbitraj o'tkazishlari uchun.

O'zbekiston Banklari Assotsiatsiasi huzuridagi "Banklararo Maslahat Xizmati" MChJ tomonidan banklararo kreditlar (depozitlar) bo'yicha milliy valyutadagi foiz stavkalarining uchta indeksi UZIBOR, UZIBID va UZIAR joriy etilganligi respublika bank va moliya tizimini rivojlantirishdagi muhim voqealardan biri bo'ldi. Indekslar sakkista har xil muddat- bir kun (overnight), bir hafta, bir oy, ikki oy, olti oy, to'qqiz oy va bir yil muddat bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Hozirgi vaqtda o'n uchta bank har kuni soat 11:30 gacha banklararo depozitlarni yuqorida ko'rsatilgan muddatlar bo'yicha joylashtirish va jalb etish yuzasidan kotirovkalarni kiritadilar. Foydalanilayotgan DEPO MARKET dasturi avtomat usulda uchta indeksni hisoblab chiqaribgina qolmasdan, shu bilan birga banklarga Reuters Dealing diling tizimiga o'xshab, muzokaralar olib borish va bitimlar tuzish imkonini ham beradi.

Eslatib o'tamiz, UZIBOR (Uzbekistan Interbank Offered Rate ) sotuvchi banknig so'mlardagi banklararo kreditlar (depozitlar) bo'yicha banklararo stavkasi bo'lib, 2004 yil may oyida joriy etilgan. 2005 yil boshlarida UZIBID va UZIAR

joriy etildi. UZIBID (Uzbekistan Interbank Bid Rate)- foiz stavkasi bo'lib, shu stavka bo'yicha banklar O'zbekiston banklararo bozorida mablag'larni jalb etishga tayyor bo'ladilar, UZIAR (Uzbekistan Interbank Avaraje Rate)- O'zbekistonning banklararo o'rtacha mediana stavkasi bo'lib, UZIBID bilan UZIBOR o'rtasida turadi. Garchi banklar bo'sh mablag'larini o'zlari ko'rsatgan OFFER (sotish kursi) va BID (xarid kuri) stavkalari bo'yicha jalb etish yoki joylashtirishga majbur bo'lmasalar-da, amaldagi stavkalar o'sha kuni indeksni hisoblab chiqarish chog'ida ko'satilgan stavkalardan katta farq qilmasligi kerak. UZIARDan banklararo bozorning barqarorligini aniqlash uchun foydalanish mumkin: OFFER va BID stavkalari o'rtasidagi farq (spred) qancha kam bo'lsa, banklararo bozor shunchalik barqaror bo'ladi va aksincha. Buni biz quydagi 4-jadval asosida ko'rishimiz mumkin.

#### 4-jadval

#### Banklarning foiz stavkalari<sup>20</sup>, 09.06.2017 yil

№	Bank nomlari	O/N	1 hafta	1 oy	2 oy	3 oy	6 oy	9 oy	12 oy
1	Asaka bank	8	9	9,5	10	10	10,5	11	12
2	Milliy bank	9	10	12	12	12	14	14	15
3	Agrobank	9	10	10	10	11	11	12	13
4	Xalq bank	8	8,5	9	9	10	10	11	12
5	Kapital bank	7	8	9	9	10	10	11	12
6	Ravnaq bank	5	5,5	6	7	7,5	8	9	10
7	Ipak yuli bank	7	8	9	9,5	10	10,5	11	12
8	Qishloq qurilish bank	6	8	9	9	10	11	11	11
9	Ipoteka bank	9	10	11	11,5	12	12,5	13	13,5
10	Trast bank	6	8	9	9,5	10	10,5	11	11
11	O'zsanoatqurilish bank	6	7,5	8,5	9	10	11	12	12,5
12	O't bank	6	7	8	9	10	11	12	12
13	Turon bank	7,5	8	8	8,5	8,5	9	10	11
14	Mikrokreditbank	9	10	10	10	10	10	10	11
15	UZIBOR	7,31	8,44	9,12	9,38	10	10,56	11,25	11,81

Jadval ma'lumotlaridan shu ko'rinib turibdiki, banklarning foiz stavkalari turlicha bo'lib, muddatiga ko'ra ko'tarilishi kuzatilyapti. Lekin ko'pchilik banklarimiz kreditlar turida qatnashmagan, chunki tahlil qilinayotgan davrimiz haftaning shanba kuniga to'g'ri kelgan. UZIBOR stavkasi bo'yicha 1 kun va 1

<sup>20</sup> <http://uzibor.uz> sayti ma'lumotlari

haftalik muddatlar bo'yicha foizlarning pasayishini banklarning bu muddatlar bo'yicha kreditga hohishlari yo'qligi bilan izohlash mumkin va aksincha.

Banklararo kredit va banklararo bozorni yanada ochiqroq urganish maqsadida banklararo kredit tarkibini va ular bank resurslari tarkibida qanchalik ulushga ega ekanligi hamda uni bank likvidligiga qanchalik ta'sir qilayotganini ko'rib chiqamiz.

## 5-jadval

### AT "Agrobank"ning olgan banklararo kreditlari<sup>21</sup>

№	Ko'rsatkichlar	2016 y.		2017 y.		o'zgarishi	
		mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da
1	Boshqa banklarning uzoq muddatli mablag'lari	136,8	18,7	55,7	89,0	-81,1	70,3
2	Boshqa banklarning uzoq muddatli mablag'lari	566,3	77,5	5,4	8,6	-560,9	-68,8
3	Boshqa banklarning vakillik hisobvaraqlari va "Overnayt" depozitlari	28,0	3,8	1,5	2,4	-26,5	-1,4
4	Boshqa banklarning mablag'lari	731,1	100,0	62,6	100,0	-668,5	0,0

AT "Agrobank"ning banklararo kreditlar bozorida boshqa banklardan olgan uzoq muddatli kreditlari 2017 yilda 55,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 81,1 mlrd. so'mga kamaygan, lekin jami boshqa banklardan olgan mablag'lari tarkibidagi ulushi 70,3 foizga ko'paygan. Umuman bankning banklararo kreditlar bozorida olgan mablag'lari 2017 yilda 2016 yilga nisbatan 668,5 mlrd. so'mga kamaygan. Bu bankning banklararo kreditlar bozorida foydalanish darajasi keskin pasayib ketganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining resurslarining boshqarishning asosiy mezonlaridan biri jalb qilingan mablag'larning oqilona qiymatini shakllantirish hisoblanadi. Tijorat banklariga jalb qilingan mablag'larning bahosi ularning aktiv operatsiyalari bo'yicha o'rnatiladigan foiz darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois ham jalb qilingan mablag'larning bahosini boshqarishda asosiy e'tibor ularni nisbatan arzon manbalar hisobidan shakllantirishga qaratiladi.

<sup>21</sup> [www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Ta'kidlash lozimki, tijorat bankining jalb qilingan mablag'lari qiymati jihatidan arzon va qimmat mablag'larga guruhlanadi. Lekin arzon mablag'lar bank uchun muddati jihatidan nisbatan nobarqaror mablag'lar hisoblanadi. Chunki ushbu mablag'lar uning sohibi tomonidan kutilmagan bir paytda qisman yoki to'lig'icha talab qilinishi natijasida bankni nolikvid holatiga tushib qolishiga sabab bo'ladi.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari tarkibida talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlar, Markaziy bankdan olingan kreditlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar qiymati jihatidan arzon, lekin muddati jihatidan nobarqaror ya'ni moliyaviy nobarqaror resurslar hisoblanadi.

Qimmat mablag'lar guruhiga tijorat banklarining regulyativ kapitali tarkibidagi ustav kapitali, muddatli depozitlar, jamg'arma va depozit sertifikatlar, banklararo kreditlar va boshqa mablag'larni kiritish mumkin. Ushbu mablag'lar qiymati jihatidan qimmat mablag'lar bo'lsada, ular muddati jihatidan nisbatan moliyaviy barqaror hisoblanadi.

Xalqaro bank tajribalari va amaliyotdagi mavjud holatlarning natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari likvidliligini ta'minlashda moliyaviy barqaror mablag'larning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ular likvidliligini ta'minlash yuzaidan muammolar shunchalik kam bo'ladi.


Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslari tarkibida Markaziy bankdan olingan kreditlarning hajmi yuqori salmoqni tashkil etadi. Markaziy bank tijorat banklariga kredit berishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, birinchidan, Markaziy bank qayta moliyalash instrumenti orqali iqtisodiyotda pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, ikkinchidan, tijorat banklarini arzon moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, Markaziy bankning qayta moliyalash instrumenti (uchyotnaya stavka) mamlakatda pul-kredit siyosatining samarali vositasi sifatida foydalanilmayapti. Vaholanki, xalqaro bank amaliyotida mamlakatda amalga oshirilayotgan pul-kredit instrumentlari ichida ushbu vositadan faol ravishda foydalanadi.



2017 yilda banklararo pul bozorida amalga oshirilgan operatsiyalar tahlili mazkur davrda olib borilgan pul-kredit siyosatining ushbu bozordagi foiz stavkalari dinamikasiga sezilarli ta'sir qilganligini ko'rsatmoqda.

Xususan, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini 2017 yilning birinchi yarim yilligida 9 foizlik darajada ushlab turilishi sharoitida banklararo pul bozorida o'rtacha tortilgan foiz stavkasining 8,0 - 9,1 foiz oralig'ida tebranib turishi iqtisodiyot real sektorini kreditlash jarayonlarida o'z aksini topdi.




**7-rasm. 2017 yilda Markaziy bankning banklararo pul bozorida operatsiyalari, mlrd. so'm<sup>22</sup>**

Hisobot yilining birinchi yarim yilligi davomida kreditlar va muomaladagi naqd pullar hajmi o'sish sur'atlarining jadallashishi, shuningdek, Markaziy bank tomonidan chet el valyutasini sotish hajmlarining oshirilishi va Hukumat hisobvaraqlarida qo'shimcha mablag'larning jamlanishi bank tizimidagi likvidlilik darajasini kamaytiruvchi asosiy sabab va omillardan bo'ldi.

Buning natijasida 2017 yil yanvar-iyun oylari davomida tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lari jami qoldig'i yil boshiga nisbatan 2,5 barobarga kamaydi. Bu esa o'z navbatida, banklararo pul bozorida mablag'lar jalb qilish bo'yicha operatsiyalar hajmining sezilarli darajada o'sishiga olib keldi.

<sup>22</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2017 yildagi faoliyati to'g'risida hisoboti

Xususan, 2017 yilda banklararo pul bozoridagi operatsiyalar hajmi 2016 yilga nisbatan 2 barobarga oshib, qariyb 9,5 trln. soʻmni tashkil etdi. Birgina 2017 yilning may oyida amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 2016 yilning mos oyiga nisbatan 4,8 barobarga oʻsib, 1,2 trln. soʻmni tashkil etgan.



**8-rasm. Markaziy bankning banklararo pul bozoridagi operatsiyalari, mlrd. soʻm<sup>23</sup>**

Hisobot yilining birinchi yarim yilligi oxirida Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 9 foizdan 14 foizgacha oshirilishi banklararo pul bozoridagi operatsiyalar boʻyicha foizlar dinamikasiga oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Xususan, banklararo pul bozorida oʻrtacha foiz stavkalari yanvar-iyun oylaridagi 8,0-9,1 foizdan iyul-dekabr oylarida 12-13,1 foizgacha oshdi.

Qayd etish lozimki, 2017 yilning IV choragida bank tizimida likvidlilik hajmi oshgan boʻlsa-da, uning asosiy qismi alohida yirik banklar hissasiga toʻgʻri kelganligi sababli, banklararo pul bozorida foiz stavkalari mos ravishda pasaymadi.

Bunda ayrim yirik banklar boʻyicha likvidlilikning oshirilishi ularning oʻz mijozlari oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarini bajarit maqsadlarida amalga oshirilgan boʻlib, ushbu moliyaviy resurslar banklararo pul bozorida taklif hajmiga taʼsir qilmadi.

<sup>23</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2017 yildagi faoliyati toʻgʻrisida hisoboti

Natijada 2017 yilning oktyabr-dekabr oylarida banklararo pul bozoridagi o'rtacha tortilgan foiz stavkasining 11,8 foizdan 13,1 foizgacha oshishi kuzatildi.

Ta'kidlash joizki, banklararo pul bozoridagi foiz stavkalarining oshib borishi, o'z navbatida, tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining oshishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Xususan, bank kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi (imtiyozli kreditlar hisobga olinmaganda) 2017 yilning birinchi yarim yilligida 14,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, hisobot yilining oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich 18,5 foizgacha ko'tarildi<sup>24</sup>.

Foiz stavkalarining o'zgarishiga, shuningdek, banklarda likvidlilik miqdorining kamayishi va banklararo pul bozorida tijorat banklari o'rtasidagi operatsiyalar hajmining qisqarishi ham ta'sir ko'rsatuvchi omillardan bo'ldi.

Tijorat banklari Markaziy bankning qayta moliyalash instrumenti asosida depozitsiz resurslarining asosiy qismini shakllantiradi.

Masalan, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asosida berilgan kreditlar Xitoy, Qozog'iston, Rossiya, Litva, AQSh banklarining jalb qilingan resurslari tarkibida 0,5 foizdan 8,0 foizgachani tashkil qiladi.

Tijorat banklarining resurslari tarkibida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asosida berilayotgan mablag'lari arzon moliyaviy manba bo'lib, tijorat banklari ushbu resurslarni mumkin qadar ko'proq jalb etishga ishtiyoqman bo'lishadi. Chunki tijoart banklari tomonidan aktiv operatsilarga joylashtirilgan ushbu mablag'larning foydalilik darajasi yuqori bo'lishi bilan birga banklar uchun nisbatan moliyaviy barqaror manba hisoblanadi.

Banklararo bozorda qo'yilmalar hajmi banklarning katta kichikligiga bog'liq bo'ladi. Ushbu bozor sektorining hajmi kichik banklar operatsiyalari bilan teng bo'ladi.

Banklararo kredit tijorat banklarinig daromadlarini ko'paytirishdagi asosiy moliyaviy barqaror manbalardan biri ekanligini ta'kidlash joizdir.

---

<sup>24</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2017 yildagi faoliyati to'g'risida hisoboti

Xulosa qilib aytganda banklararo kreditlar banklarning moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni jalb qilish bo'yicha tezkor usul hisoblanadi.

## **2-bob bo'yicha xulosa**

Respublika moliya bozorida tijorat banklarining uzoq muddatli resurslarni shakllantirish holati o'rganilib quyidagi xulosalar shakllanirildi:

1. Mablag'larni jalb etish maqsadida kapital iste'molchilari qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaradi va ularni sotish natijasida ishlab chiqarish (savdo-sotiq, moliyaviy faoliyat va h.k.) jarayonini amalga oshirish uchun mablag' oladi.

2. 2017 yilda fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan bitimlar soni 2572 tani tashkil etgan holda, yil davomida birja savdolari orqali 99 ta aksiyadorlik jamiyatining 1 551,6 mln. dona qimmatli qog'ozi bilan birja bitimlari amalga oshirildi.

3. Fond birjasi faoliyatining 2017 yilgi savdo aylanmasi tahlili iqtisodiyotning moliyaviy sektori, ya'ni bank, sug'urta va lizing sohasidagi kompaniyalar qimmatli qog'ozlari yuqori investitsion jozibadorlik kasb etganini ko'rsatdi. Moliyaviy tarmoqning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 87,8 foiz yoki 262,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan holda, shundan 257,6 mlrd. so'mlik qismi yoki 86,3 foizi tijorat banklarining, 3,1 mlrd. so'mlik qismi (1,0 foiz) lizing kompaniyalari hamda 1,5 mlrd. so'mlik qismi (0,5 foiz) sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bitimlardan iborat.

4. Har qanday mamlakatning QQBda bank roli oshishining asosiy omili bo'lib—o'sha mamlakat xo'jalik sub'ektlarining moliya resurslari bilan keng doirada foydalanishini ta'minlovchi, hamda yuqori innovatsion—investitsion faoliyati va ularning moliyaviy risklarini sug'urtalash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlab beruvchi zamonaviy va sifatli bank xizmatita bo'lgan talabining yil sayin oshib borayotgani hisoblanadi.

5. Banklar moliyaviy resurslarni shakllantirish maqsadida aksiya, obligatsiya, depozit va jamg'arma sertifikatlarni muomalaga chiqaradi. Shuningdek, tijorat

banklari uzoq muddatli resurslarini shakllantirishda ipoteka va subordinar qimmatli qog'ozlari muhim o'rin tutadi.

6. AT "Agrobank"ning muomalaga chiqargan qarz qimmatli qog'ozlar asosan depozit sertifikatlari va xujjatsiz obligatsiyadan tarkib topgan. Bankning 2017 yilda muomalada bo'lgan qarz qimmatli qog'ozlari o'tgan yilga nisbatan 10,2 mlrd. so'mga kamaygan.

7. Tijorat banklarining moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning yirik manbalardan biri banklararo kreditlar hisoblanadi. Banklararo kredit tijorat banklariga qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini zudlik bilan ta'minlash imkoniyatini berish bilan birga, resurslarni muddati jihatidan barqaror manbalar hisobidan shakllantirishga sharoit yaratadi.

### **3-BOB. MOLIYA BOZORIDA UZOQ MUDDATLI RESURLARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH**

#### **3.1. Tijorat banklarida korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali uzoq muddatli resurslarni jalb qilish**

Moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni jalb qilishda qarz qimmatli qimmatli qog'ozlarni sotish yo'li bilan bankning resurslar bazasini mustahkamlash alohida o'rin egallaydi. Tijorat banklari qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj sezganda qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaradilar. Bunda asosiy muammo qimmatli qog'ozlarni mo'tadil bozor bahosida sotish hisoblanadi.

Tijorat banklari obligatsiyalarni muomalaga chiqarishlari mumkin. Ular obligatsiyalarni O'zbekiston Respublikasi davlat mulki qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish" qoidalariga (2009 yil 30 avgust, ro'yxat raqami 2000) muvofiq emissiya qiladi.

Obligatsiya - ochiq aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilgan tijorat banklari tomonidan chiqarilgan, obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'ozdir.

Emitent tomonidan obligatsiyalarni chiqarish agar emitentning ustavida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Obligatsiyalar faqat tijorat banklari, shuningdek aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan quyidagi shartlarga rioya etgan holda chiqarilishi mumkin:

a) auditorlik tashkilotining xulosasi bilan tasdiqlangan o'z kapitalining obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi miqdori doirasida;

b) oxirgi uch yil mobaynida rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning auditorlik tashkiloti xulosalari bilan tasdiqlangan ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lgan (tijorat banklari bundan mustasno);

v) mustaqil reyting bahosini olgan;

g) investorlarga tegishli mablag'larning emitentlar tomonidan to'lanishi bo'yicha to'lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida;

d) ustav kapitalini qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan kam bo'lmagan miqdorda shakllantirgan;

e) kamida uch yildan beri faoliyat yuritayotgan.

Tijorat banklari - aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan ustav bilan belgilangan bank ustav kapitali miqdori doirasida obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda qaror qabul qilingan sanadagi auditorlik tashkilotining o'z kapitali miqdoriga doir xulosasining mavjudligi talab qilinmaydi.

Obligatsiyalar ularning egalariga aksiyadorlik jamiyatini va boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilgan tijorat bankini boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi.

Emitent tomonidan chiqarilgan va so'ndirilmagan (bekor qilinmagan) barcha obligatsiyalarning nominal qiymati o'z kapitalining miqdoridan oshmasligi kerak.


Obligatsiya uning olingan vaqtidan qat'i nazar, bir chiqarilish ichida huquqlarni amalga oshirishda teng hajmlar va muddatlarga ega.

Ustav fondining shakllanganiga qadar (tijorat banklari ustav fondining shakllanish hollari bundan mustasno), shuningdek, uni to'ldirish yoki emitentning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq zararlarni qoplash uchun obligatsiyalar chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

Obligatsiyalar hujjatli va hujjatsiz shaklda chiqarilishi mumkin.

Hujjatli shakldagi obligatsiyalar joylashtirilgan taqdirda obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorning barcha nusxalariga obligatsiya blankining namunasi (bayoni) tikiladi.

Foizli, diskontli, yutuqli va maqsadli (foizsiz) obligatsiyalar chiqarilishi mumkin.



**9-rasm. Tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqariladigan obligatsiyalarning turlari<sup>25</sup>**

Foizli obligatsiyaning daromadi chiqarilish shartlari bilan belgilanadigan nominal qiymati bo'yicha belgilangan muddatda so'ndirish va qayd etilgan foizlarni to'lash hisobiga tashkil etadi.

Diskontli obligatsiyaning daromadi nominal qiymati bo'yicha belgilangan muddatda so'ndirish hisobiga, bunda daromad sotish bahosi va obligatsiyaning nominal qiymati o'rtasidagi farq hisobiga tashkil etadi.


Yutuqli obligatsiyalarni chiqarishda nominal qiymatga foiz yoki diskont ko'rinishida belgilangan daromadga qo'shimcha ravishda muntazam o'tkazib turiladigan tirajlar bo'yicha yutuq ko'rinishida to'lanadigan daromad belgilanishi kerak. Daromadi muntazam ravishda o'tkazib turiladigan tirajlar bo'yicha yutuq ko'rinishida belgilanadigan obligatsiyalarni chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

<sup>25</sup> Muallif tomonidan tuzildi



Maqsadli (foizsiz) obligatsiyalar bo'yicha daromad tovar (xizmat) ko'rinishida belgilanadi. Qaysi tovar (xizmat) asosida chiqarilganligini ko'rsatish maqsadli obligatsiyalarning majburiy rekviziti hisoblanadi.

Biz quyidagi rasm ma'lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan obligatsiyalarning o'zgarish dinamikasini ko'rib chiqamiz.



**10-rasm. Tijorat banklarining subordinatsiyalashgan qimmatli qog'ozlari<sup>26</sup> (mlrd. so'm)**

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan subordinatsiyalashgan qimmatli qog'ozlarning miqdori 2016 yilda 2012 yilga nisbatan kamaygan va 2017 yilda keskin oshgan. 2017 yilda subordinatsiyalashgan qimmatli qog'ozlar 120,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan va bu o'tgan yillarga nisbatan kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan subordinatsiyalashgan qimmatli qog'ozlarning bank jami passivlarining umumiy hajmida kichik salmoqqa ega ekanligi, ularni sotish asosida olingan mablag'larning

<sup>26</sup> Ahbor-reyting reyting agentligining bank sektori tahlili ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

tijorat banklarining passivlarini boshqarishda amaliy ahamiyat kasb etmayotganligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish bilan bog'liq operatsiyalarining rivojlanmaganligi quyidagi omillar bilan izohlanadi, ya'ni:

- tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari investorlar uchun investitsion jozibadorligining yo'qligi;

- respublikamiz qator tijorat banklarida qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish amaliyotining shakllanmaganligi.

Respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozorining etarlicha rivojlanmaganligi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarini bozor mexanizmlari asosida o'zlari uchun qulay baholarda tez sotish imkonini bermaydi.

Tijorat banklari passivlarini boshqarish nazariyasiga ko'ra, bank likvidliligini ta'minlash uchun bozordan qo'shimcha mablag'larni jalb qiladilar. Tijorat banklari passivlari likvidligini boshqarish siyosatini rivojlantiradigan va to'ldiradigan passivlarni boshqarish nazariyasi quyidagi ikki omil bilan asoslanadi:

birinchidan, tijorat banklari likvidlik muammosini qo'shimcha pul mablag'larini kapital bozoridan sotib olgan holda jalb etish yo'li bilan hal etishi mumkin.

ikkinchidan, tijorat banki o'z likvidligini Markaziy bankdan beriladigan pul mablag'laridan yoki vakil banklaridan qarzga olinadigan, shuningdek, yevrovalyutalar bozoridan olinadigan qarzlardan foydalanib, ta'minlashi mumkin.

Keyingi yillarda tijorat banklari o'z likvidliklarini ta'minlash uchun keng miqyosda qarz olishdan foydalanmoqdalar. Qarz mablag'laridan foydalanish ko'lamining kengayishi keyingi yillarda bank kreditlariga talab oshganligi va muddatli omonatlar hajmi nisbatan sekin oshayotganligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, tijorat banklarining moliya bozoridan qarz majburiyatlari orqali resurslarni jalb qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bankning ishonchliligini ta'minlash (likvidlik maqsadlariga erishish), uning aktiv operatsiyalarini kengaytirish (maksimal foyda olishga erishish) uchun zarur va yetarli bo'lgan kapital miqdorini aniqlash. Mamlakatdagi bank tizimini nazorat

qiluvchi organlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan tijorat banklari kapital yetarliligiga qo'yilgan talabning o'sib borishi, nafaqat barqarorlik va ishonchlik nuqtai nazaridan, balki mahalliy va jahon moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarining kengayishi, qo'shilish va qo'shib olinish bo'yicha amalga oshirilayotgan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan ham muhimdir;

– tijorat banklari tomonidan mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarish va aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur resurs manbalarini izlab topish;

– talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar va likvidlik muvofiqligini ta'minlash, banklar tomonidan «arzon» resurslarni jalb qilish hisobidan foyda olish maqsadida muddatli va jamg'arma depozitlarni jalb etish.

Xulosa qilib aytganda, bank moliya bozorida qarz majburiyatlarini shakllantirish bank faoliyatining samaradorligini ta'minlashda birlamchi ahamiyatga egadir. Shu nuqtai-nazardan qaraganimizda, bank majburiyatlarni xarajatliligi, ishonchliligi va likvidliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari majburiyatlarini samarali boshqarmasdan turib, bankning aktiv operatsiyalarini rejalashtirish mumkin emas.

### **3.2. Moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish orqali banklarning resurs bazasini mustahkamlash yo'nalishlari**

Ma'lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimiz moliya bozorini yanada rivojlantirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish hamda zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida qabul qilingan qonunlarga binoan yurtimizda Markaziy bank hamda tijorat banklaridan iborat bo'lgan, bozor iqtisodiyotiga mos keladigan mustaqil, ikki pog'onali bank tizimi yaratildi, qator sug'urta va lizing kompaniyalari, mikro kredit tashkilotlari, "Toshkent" fond birjasi, valyuta birjasi va qimmatli qog'ozlar bozori faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun katta hajmdagi investitsiyalar zarur bo'ladi. Investitsiyalarni esa moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozori orqali olib kelish

mumkin. Shuning uchun ham mamlakatning iqtisodiy o'sishida moliya bozori va qimmatli qog'ozlarning roli nihoyatda kattadir.

Moliya bozori hamda zamonaviy moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Faqat shunday sharoitdagina investitsiya faoliyatini faollashtirish va investitsiya oqimlarini ishlab chiqarish, so'ngra esa yuqori texnologiyalar sohasiga qayta yo'naltirish mumkin bo'ladi. Zamonaviy moliya bozorlarining asosiy unsurlarini yaratmasdan turib, iqtisodiy o'sish asosiy omillaridan biri hisoblangan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning kirishiga erishib bo'lmaydi.

Moliya bozori yordamida iqtisodiyotda pul mablag'lari harakati ta'minlanadi, shuningdek, moliya resurslarini beto'xtov shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va sarmoyalash amalga oshiriladi. U investitsiyaga aylanayotgan pulning xo'jalikning turli sohalari o'rtasida erkin ko'chib yurishi, moliya resurslaridan erkin va oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

O'z navbatida, pulning kapital sifatida ishlab chiqarishga safarbar etilishi iqtisodiy salohiyatni kuchaytiradi, innovatsiyalar, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtiradi va shu asosda xalq farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimiz moliya bozori o'zining barqaror va ishonchli ekanini isbotladi. Shu bilan birga, O'zbekiston moliya bozorini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish uchun quyidagi ishlarni olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- jahon amaliyoti talablariga muvofiq O'zbekiston moliya bozori faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish va barqaror rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar bozori ishtirokchilari va investorlarining huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish;

- jahon standartlari talablariga muvofiq moliya bozorini yanada erkinlashtirish, uning barqarorligi va kapitallashuv darajasini oshirish;

- mamlakatimiz moliya bozori raqobatbardoshligini mustahkamlash va uning yangi segmentlarini shakllantirish;

- moliya bozoriga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, milliy iqtisodiyotga xorijiy valyuta tushumlarini ko'paytirish maqsadida mamlakatning xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyasini ta'minlovchi samarali vositalarni rivojlantirish;

-O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, shuningdek, ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish uchun resurslarni shakllantirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda sohalar va korxonalar o'rtasida samarali kapital oqimini tashkil etishda moliya bozori salohiyatidan yanada keng foydalanish;

- tijorat banklari va nobank moliya institutlarining investitsion faolligini yanada kuchaytirish hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtirokini yanada kengaytirish;

- moliya bozorini yanada rivojlantirish hamda mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida moliya bozorida hisob-kitob, kliring tizimi barqarorligini oshirish va unga zamonaviy xalqaro tajribalarni joriy etish;

- mamlakatimiz moliya bozorida real iqtisodiyot yoki moliya bozoridagi bazis aktivlar muomalasi doirasida hosila moliyaviy vositalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish. Bunda hosila moliyaviy vositalar bilan spekulyativ amaliyotlarni cheklash mexanizmlarini joriy etish;

- moliyaviy aktivlar likvidliligini oshirish, moliya bozorida innovatsiyalarni yaratish maqsadida moliyaviy aktivlar sekyuritizatsiyasi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;

- moliya bozoridagi likvidlilikni tartibga solish maqsadida REPO, SVOP operatsiyalarini yanada rivojlantirish;

- moliya bozorida faoliyat yurituvchi moliya institutlari tomonidan xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko'lamini yanada kengaytirish;

- global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida jahon moliya bozori rivojlanishining ilg'or xorij tajribasini tahlil qilish va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini baholash.

Milliy iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilishda mamlaktimizda shakillanib borayotgan qimmatli qog'ozlar bozori salohiyatidan ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishning ishonchli vositasiga aylantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada, quyidagilarni taklif etamiz:

- tijorat banklari tomonidan obligatsiyalar va depozit sertifikatlarni muomalaga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni yanada soddalashtirish va ularning emitentlar hamda investorlar uchun jozibadorligini oshirish;

- chaqirib olinmaydigan depozit sertifikatlari muomalasini yo'lga qo'yishni tashkillashtirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash;

- Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalariga muvofiq bank kapitali tarkibida barqaror elementlar, ya'ni oddiy aksiyalar salmog'ini ortirish;

- qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini faollashtirish, subordinar qarzning hajmlarini kengaytirish;

- progressiv fond dastaklarini, shu jumladan kommulyativ aksiyalar, konvertatsiyalanadigan obligatsiyalar, ipoteka sertifikatlari, hosilaviy va garov qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va muomalaga chiqarish ko'lamini kengaytirish;

- banklarning uzoq muddatli resurslarini ko'paytirish borasida bank depozitlari, depozit sertifikatlari va korporativ obligatsiyalarining yangi turlarini joriy etish va amaldagi turlarini ularning muddatlari, summasi, valyuta turlari va to'lash usullari bo'yicha yanada takomillashtirish;

- garov ob'ekti hisoblangan qimmatli qog'ozlar ro'yxatini kengaytirish va bu ro'yxatni muntazam e'lon qilib borish;

- aktivlar sekyuritizatsiyasini tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish. Bunda "moliyaviy pufaklar" paydo bo'lishini oldini olish maqsadida ushbu faoliyat ustidan prudensial nazoratni kuchaytirish, sekyuritizatsiyalanayotgan aktivlar shaffofligini oshirish hamda ularning ta'minlanganlik darajasiga e'tibor berish.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent sifatidagi ishtirokini faollashtirish maqsadida depozit va jamg'arma sertifikatlari muomalaga

chiqarish orqali shakllantirgan mablag'lari hisobidan Markaziy bankning majburiy zaxira hisobiga o'tkazish talabini to'lig'icha bekor qilish lozim. Bunday taklifning vujudga kelishiga quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

–tijorat banklari bozor iqtisodiyotining asosiy instrumentlari hisoblangan qimmatli qog'ozlardan qoniqarsiz ravishda foydalanishiga barham berilishiga turtki bo'ladi;

–banklar resurslari tarkibida muddati jihatidan «uzun» va nisbatan arzon mablag'larning shakllanishiga bo'lgan manfaatdorligi ortadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklariga resurslarni jalb qilishning maqbul usullaridan biri qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish bo'yicha shartnomalar tuzish yoki «repo» operatsiyasi hisoblanadi. Ushbu kelishuvda, bank sotilgan qimmatli qog'ozlarni ma'lum muddatdan so'ng oldindan kelishilgan bahoda qayta sotib olishni o'z zimmasiga oladi.

Bu operatsiyaning afzalligi shundaki, bank o'zining qisqa muddatli kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirsa, benifitsar esa vaqtincha bo'sh mablag'larini ishonchli manbaga samarali joylashtirish orqali nisbatan yuqori miqdorda foyda oladi. Odatda, ushbu operatsiyalar bo'yicha mablag'lar bir kundan bir necha oygacha, asosan, qisqa muddatga beriladi. Shu bilan birga, «repo» operatsiyasi bankka quyidagi qulayliklarni beradi:

–bankning likvidlilik jihatidan yuqori riskka duchor qilmaydi. Chunki, qimmatli qog'ozlar ma'lum kelishilgan muddatga emissiya qilinadi;

–bank sotilgan qimmatli qog'ozning qiymati miqdoridagi mablag'ni mijozning hisobvarag'ini, agar uning hisobvarag'i shu bankda ochilgan bo'lsa, debetlash yo'li bilan yoki benefitsiarning boshqa bankdagi hisobvarag'idan qisqa muddatda olish imkoniyatiga ega. Shuningdek, agar benefitsiarning hisobvaraqqasi shu bankda ochilgan bo'lsa, u holda bank Markaziy bankka «repo» summasi miqdoridagi summaga majburiy zaxira ajratmasi bazasini kamaytiradi;

–xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari «repo» operatsiyalari asosida jalb qilingan mablag'lari hisobidan Markaziy bankka majburiy zahiralarni to'lashdan va depozit operatsiyalardagi kabi mablag'ni sug'urta qilishdan ozod etilgan. Ushbu

holat O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari amaliyotida ham joriy etilgan bo'lib, ularga mazkur operatsiya asosida mablag'larni kengroq jalb qilish imkoniyatini beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida tijorat banklari oldiga qator vazifalar qo'yilmoqda, ularning asosiylaridan biri mamlakatimizdagi yosh oilalarning uy joyga bo'lgan talabini qondirish uchun uzoq muddatli ipoteka kreditlarini berish hisoblanadi. Albatta ushbu kreditni berish uchun banklarda «uzun» resurslarning manbasi mavjud bo'lishi lozim. Amalga oshirilgan tahlillar natijasida mazkur masala tijorat banklarida asosiy muammolardan biri ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Chunki tijorat banklarida 10-15 yillik muddatli resurslarning manbasi mavjud emas. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokining zaifligini asosiy sabablaridan biri, iqtisodiyotdagi real inflyatsiya darajasining sezilarli darajada yuqoriligi va investorlar qimmatli qog'ozlar hisobidan olayotgan real daromadlari samaradorlik darajasining pastligi hamda aholi qimmatli qog'ozlarga nisbatan ishonchining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Ushbu muammoning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar holatiga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida dividendlarni to'lash jarayonida iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasini inobatga olish va aholining qimmatli qog'ozlarga nisbatan manfaatdorligini oshirish lozim.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimiz bank-moliya sohasida modernizatsiya jarayonlarini yanada jadallashtirish, mamlakatimiz moliya bozorini yanada mustahkamlash va jahon talablariga mos keladigan zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish, moliya bozorida raqobatni yanada kuchaytirish, moliya-kredit institutlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirishga imkon yaratadi.



### **3-bob bo'yicha xulosa**

Moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish orqali banklarning resurs bazasini mustahkamlash yo'nalishlari o'rganilib quyidagi xulosalar shakllantirildi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Bank moliya bozoridan qarz majburiyatlarini shakllantirish bank faoliyatining samaradorligini ta'minlashda birlamchi ahamiyatga egadir. Shu nuqtai-nazardan qaraganimizda, bank majburiyatlarni xarajatliligi, ishonchliligi va likvidliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Moliya bozori hamda zamonaviy moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

3. Moliya bozori yordamida iqtisodiyotda pul mablag'lari harakati ta'minlanadi, shuningdek, moliya resurslarini beto'xtov shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va sarmoyalash amalga oshiriladi. U investitsiyaga aylanayotgan pulning xo'jalikning turli sohalari o'rtasida erkin ko'chib yurishi, moliya resurslaridan erkin va oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

4. O'zbekiston moliya bozorini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish, uzoq muddatli resurslarni shakllantirish uchun quyidagi ishlarni olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- jahon amaliyoti talablariga muvofiq O'zbekiston moliya bozori faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish va barqaror rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar bozori ishtirokchilari va investorlarining huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish;

- jahon standartlari talablariga muvofiq moliya bozorini yanada erkinlashtirish, uning barqarorligi va kapitallashuv darajasini oshirish;

- mamlakatimiz moliya bozori raqobatbardoshligini mustahkamlash va uning yangi segmentlarini shakllantirish;

- moliya bozoriga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, milliy iqtisodiyotga xorijiy valyuta tushumlarini ko'paytirish maqsadida mamlakatning xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyasini ta'minlovchi samarali vositalarni rivojlantirish;

- moliya bozorini yanada rivojlantirish hamda mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida moliya bozorida hisob-kitob, kliring tizimi barqarorligini oshirish va unga zamonaviy xalqaro tajribalarni joriy etish;

- moliya bozoridagi likvidlikni tartibga solish maqsadida REPO, SVOP operatsiyalarini yanada rivojlantirish;

- tijorat banklari tomonidan obligatsiyalar va depozit sertifikatlarni muomalaga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni yanada soddalashtirish va ularning emitentlar hamda investorlar uchun jozibadorligini oshirish;

- chaqirib olinmaydigan depozit sertifikatlari muomalasini yo'lga qo'yishni tashkillashtirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash;

- Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalariga muvofiq bank kapitali tarkibida barqaror elementlar, ya'ni oddiy aksiyalar salmog'ini ortirish;

- qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini faollashtirish, subordinar qarzning hajmlarini kengaytirish;

- banklarning uzoq muddatli resurslarini ko'paytirish borasida bank depozitlari, depozit sertifikatlari va korporativ obligatsiyalarining yangi turlarini joriy etish va amaldagi turlarini ularning muddatlari, summasi, valyuta turlari va to'lash usullari bo'yicha yanada takomillashtirish.

## XULOSA

Respublika moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish usullarini o'rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Moliya bozori - bu moliya-kredit sohasining tarkibiy qismi bo'lib, real bazisiga ekvivalent moliyaviy instrumentlar (kreditlar, lizing, depozitlar, valyuta, qimmatli qog'ozlar, sug'urta va pensiya polislari, derivativlar va boshqa turdagi moliyaviy mahsulotlar) bilan bog'liq tashkillashgan iqtisodiy-huquqiy-informatsion mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni iqtisodiyot subyektlari tomonidan maqsadli amalga oshirilishi uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'luvchi tizim.

2. Moliya bozori hamda zamonaviy moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

3. Moliya bozori yordamida iqtisodiyotda pul mablag'lari harakati ta'minlanadi, shuningdek, moliya resurslarini beto'xtov shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va sarmoyalash amalga oshiriladi. U investitsiyaga aylanayotgan pulning xo'jalikning turli sohalari o'rtasida erkin ko'chib yurishi, moliya resurslaridan erkin va oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

4. Qimmatli qog'ozlar moliyaviy resurslar harakatining katta qismini qamraydi. Qimmatli qog'ozlardan tashqari moliya bozorida ssuda va kreditlar, subsidiya va subvensiyalar, oltin va valyutalar, sug'urta vositalari muomalada boladi.

5. Moliya bozori bir qator funksiyalarni bajaradi. Ularni to'rt guruhga ajratish mumkin: makroiqtisodiy, umumbozor, maxsus (ixtisoslashgan) va globallashtirish (meta, ya'ni xalqaro darajada moliyaviy globallashtirish) funksiyalarga.

6. 2017 yilda fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan bitimlar soni 2572 tani tashkil etgan holda, yil davomida birja savdolari orqali 99 ta aksiyadorlik jamiyatining 1 551,6 mln. dona qimmatli qog'ozi bilan birja bitimlari amalga oshirildi.

7. Fond birjasi faoliyatining 2017 yilgi savdo aylanmasi tahlili iqtisodiyotning moliyaviy sektori, ya'ni bank, sug'urta va lizing sohasidagi kompaniyalar qimmatli qog'ozlari yuqori investitsion jozibadorlik kasb etganini ko'rsatdi. Moliyaviy tarmoqning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 87,8 foiz yoki 262,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan holda, shundan 257,6 mlrd. so'mlik qismi yoki 86,3 foizi tijorat banklarining, 3,1 mlrd. so'mlik qismi (1,0 foiz) lizing kompaniyalari hamda 1,5 mlrd. so'mlik qismi (0,5 foiz) sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bitimlardan iborat.

8. Har qanday mamlakatning QQBda bank roli oshishining asosiy omili bo'lib—o'sha mamlakat xo'jalik subektlarining moliya resurslari bilan keng doirada foydalanishini ta'minlovchi, hamda yuqori innovatsion—investitsion faoliyati va ularning moliyaviy risklarini sug'urtalash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlab beruvchi zamonaviy va sifatli bank xizmatita bo'lgan talabining yil sayin oshib borayotgani hisoblanadi.

9. Banklar moliyaviy resurslarni shakllantirish maqsadida aksiya, obligatsiya, depozit va jamg'arma sertifikatlarni muomalaga chiqaradi. Shuningdek, tijorat banklari uzoq muddatli resurslarini shakllantirishda ipoteka va subordinar qimmatli qog'ozlari muhim o'rin tutadi.

10. AT "Agrobank"ning muomalaga chiqargan qarz qimmatli qog'ozlar asosan depozit sertifikatlari va xujjatsiz obligatsiyadan tarkib topgan. Bankning 2017 yilda muomalada bo'lgan qarz qimmatli qog'ozlari o'tgan yilga nisbatan 10,2 mlrd. so'mga kamaygan.

11. Tijorat banklarining moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning yirik manbalardan biri banklararo kreditlar hisoblanadi. Banklararo kredit tijorat banklariga qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini zudlik bilan ta'minlash imkoniyatini berish bilan birga, resurslarni muddati jihatidan barqaror manbalar hisobidan shakllantirishga sharoit yaratadi.

O'zbekiston moliya bozorini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish, uzoq muddatli resurslarni shakllantirish uchun quyidagi ishlarni olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Jahon amaliyoti talablariga muvofiq O'zbekiston moliya bozori faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish va barqaror rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar bozori ishtirokchilari va investorlarining huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish;

2. Jahon standartlari talablariga muvofiq moliya bozorini yanada erkinlashtirish, uning barqarorligi va kapitallashuv darajasini oshirish;

3. Moliya bozoriga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, milliy iqtisodiyotga xorijiy valyuta tushumlarini ko'paytirish maqsadida mamlakatning xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyasini ta'minlovchi samarali vositalarni rivojlantirish;

4. Moliya bozorini yanada rivojlantirish hamda mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida moliya bozorida hisob-kitob, kliring tizimi barqarorligini oshirish va unga zamonaviy xalqaro tajribalarni joriy etish;

5. Moliya bozoridagi likvidlilikni tartibga solish maqsadida REPO, SVOP operatsiyalarini yanada rivojlantirish;

6. Tijorat banklari tomonidan obligatsiyalar va depozit sertifikatlarni muomalaga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni yanada soddalashtirish va ularning emitentlar hamda investorlar uchun jozibadorligini oshirish;

7. Chaqirib olinmaydigan depozit sertifikatlari muomalasini yo'lga qo'yishni tashkillashtirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash;

8. Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalariga muvofiq bank kapitali tarkibida barqaror elementlar, ya'ni oddiy aksiyalar salmog'ini ortirish;

9. Qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini faollashtirish, subordinar qarzning hajmlarini kengaytirish;

10. Banklarning uzoq muddatli resurslarini ko'paytirish borasida bank depozitlari, depozit sertifikatlari va korporativ obligatsiyalarining yangi turlarini joriy etish va amaldagi turlarini ularning muddatlari, summasi, valyuta turlari va to'lash usullari bo'yicha yanada takomillashtirish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to'g'risida»gi qonuni. 1995 yil 21 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining «Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi qonuni. 1996 yil 25 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida» qonuni. 2015 yil 3 iyun
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5296-sonli Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5177-sonli Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3620-sonli Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi «Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3272-sonli Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3270-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 2344- sonli Qarori. 2015 yil 6 may

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-sonli Farmoni. 2015 yil 24 aprel

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 1438- sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida korporativ boshqaruvi to'g'risida"gi 943-son Nizomi, 2000 yil 5 iyul.

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2693-son Nizomi, 2015 yil 6 iyul.

15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2229-son Nizomi, 2011 yil 25 may.

16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchi va investitsiya konsultanti sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar to'g'risida"gi 1782-nizom 2008 yil 2 aprel

17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi 1648-sonli nizom 2006 yil 27 dekabr.

18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining " Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi 422-son Nizomi, 1998 yil 25 sentyabr

19. O'zbekiston Respublikasi davlat mulki qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish" qoidalariga (2009 yil 30 avgust, ro'yxat raqami 2000)

## **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari**

20. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

21. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

22. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

23. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

24. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni barataraf etishning yullari va choralari. Toshkent: O'zbekiston- 2009.

25. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.

## **3. Darslik va o'quv adabiyotlari**

26. Abdullayev Yo., Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 yil, B. 123

27. Abdullayeva Sh.Z. Bank ish. -T.: Moliya 2003 yil, 131 b.

28. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T., Moliya, 2002 y. 66-bet

29. Банковское дело: Учебник / под. ред. д.э.н. проф. Г.Г. Коробовой. – М.: Экономистъ, 2004. – 751 с.

30. Банковское дело: Учебник. перераб. и доп./ Под ред. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2008. – 768 с.

31. Банковское дело. Экспресс-курс: Учебное пособие/ кол. авторов, под. ред. О.И. Лаврушина – М.: КНОРУС, 2009. – С. 126

32. Банковское дело: Учебник/ под. ред. д.э.н. проф. Г.Г. Коробовой. – М.: Экономист, 2004. – с. 132

33. Butikov I. «Qimmatli qog'ozlar bozori». Toshkent. «Konsauditinform» 2001 yil.



34. Деньги, кредит и банки: учебное пособие / М.П. Владимирова, А.И. Козлов – 2-е изд. – М.: КНОРУС, 2006. 288 с. С. -114
35. Мвасенко А.Г. Рынок ценных бумаг: Инструменты и механизмы функционирования: Учебное пособие. – 2-е изд., перераб. / А.Г. Ивасенко, Я.И. Никонова, В.А. Павленко. – М.: Кнорпус, 2005. – 272 с.
36. Mullajanov F. “O’zbekiston Respublikasi bank tizimi” 2011 y
37. Рынок ценных бумаг: Учебник / Под ред. В.А.Галанова, А.И.Басова. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2006. - 448 с.
38. Севрук В.Т. Банковские риски. М.: Дело, 1995, 3 стр.
39. Стоянова Е.С. Финансовый менеджмент, М.: Перспектива, 1993, 121 стр.
40. Стародубцева Е.Б. Рынок ценных бумаг: Учебник. – М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М, 2006. – 176с.
41. O’lmasov A., Sharifxo’jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Mehnat, 1995 y. 387 bet.
42. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк, М.: ИПЦ “Вазар-Ферро” 1994, 26 стр.
43. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 440 b.
44. Frederik S. Mishkin. “ Pul, bank ishi va moliya bozori iqtisodiyot”. T. 1999 yil.
45. Эрнандо де Сото. Загадка капитала. Почему капитализм торжествует на Западе и терпит поражение во всём остальном мире./ Пер. с англ. -М.: Олимп-Бизнес, 2001. 270 с.

#### **4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)**

46. Rustam Akhmetova, Guzel Rysaeva, The Problems of Financial Cycle Modeling in the Globalization of Financial Markets // Procedia Economics and Finance 27 ( 2015 ) 522 – 528
47. «Ahbor Reyting» reyting kompaniyasining tahliliy sharhi
48. «Bozor, pul va kredit» jurnali

49. ATB Agrobankning hisobot ma'lumotlari
50. Bank axborotnomasi gazetasi
51. "Toshkent" Respublika fond birjasi hisobot ma'lumotlari

#### **5. Internet saytlari**

52. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
53. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)
54. [www.uzse.uz](http://www.uzse.uz) (Toshkent fond birjasi)
55. [www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz) (ATB Agrobank)
56. [www.uzibor.uz](http://www.uzibor.uz) (O'zbekiston banklari uyushmasi)
57. [www.scopus.com](http://www.scopus.com) (Scopusning rasmiy sayti)
58. [www.elsevierscience.ru](http://www.elsevierscience.ru) (Elsevierning rasmiy sayti)
59. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)